2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 267 (1056), 2023-yil 23-dekabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI MA’NAVIYATI YUKSAK XALQIMIZ BILAN BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda ma’naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san’at namoyandalari, shuningdek, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi vakillari, vazirlar va hokimlar ishtirok etdi.

Ma’lumki, respublikamizda ushbu Kengash raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanadi. Chunki ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat ustuvor masaladir.

Davlatimiz rahbari buning uchun, avvalo, mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini ta’kidlab, shu borada amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etib o‘tdi. Ushbu iqtisodiy asos natijasida bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p — 134 trillion so‘m mablag‘ ajratildi. Bu — 2016-yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari shiddatli tus olgani, o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri mamlakatimizda ham sezilayotgani qayd etildi.

— Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, — deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Ma’rifatparvar bobolar g‘oyalarini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochiladi, “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etiladi.

So‘nggi yillarda ma’naviy-ma’rifiy sohalarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hamda Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi.

“Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingani soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Milliy an’analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san’ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 5 ta oliy ta’lim muassasasi tashkil etildi.

Umuman, madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 karra oshib, 2023-yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

“Maqom”, “Baxshichilik”, Hunarmandchilik, “Lazgi” kabi xalqaro festivallar an’anaga aylandi. 24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, qo‘shni davlatlarda “O‘zbekiston madaniyati kunlari” yuqori saviyada o‘tkazildi.

Davomi 3-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi

Assalomu alaykum, hurmatli Kengash a’zolari!

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan g‘oyat muhim masalalarni muhokama qilish va ular yuzasidan zarur yechimlar topish uchun yig‘ildik.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining yig‘ilishida Oliy Majlis hamda Vazirlar Mahkamasi rahbarlari, hurmatli deputat va senatorlar, vazirlar, hokimlar bilan birga milliy ma’naviyatimiz faollari, madaniyat, adabiyot va san’at sohasi vakillari ham ishtirok etmoqda.

Barchangizga ayon, yurtimizda Prezident ushbu Kengash raisi hisoblanadi. Hududlarda esa birinchi rahbarlar bu masala uchun mas’ul etib belgilangan.

Nima uchun shunday yo‘l tutdik? Chunki ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat biz uchun ustuvor masaladir.

Albatta, Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun, avvalo, uning mustahkam iqtisodiy, moddiy-texnik asoslarini yaratish kerak. Bugun shu yo‘lda xalqimiz bilan birgalikda amalga oshirayotgan ishlarimizda barchangiz faol ishtirok etmoqdasiz.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda iqtisodiyotni chinakam bozor munosabatlari asosida tashkil etyapmiz. Barcha soha va tarmoqlarda davlat ishtiroki kamaytirilib, xususiy mulk va investitsiyalarga, davlat-xususiy sheriklik tamoyillariga keng yo‘l ochilmoqda. Tadbirkorlar, fermer va klasterlar uchun qulay sharoitlar yaratib beryapmiz. O‘zbekistonda “majburiy mehnat”, “bolalar mehnati”ga butunlay chek qo‘yildi. Davlat buyurtmasi tizimini ham optimal holatga keltiryapmiz.

Barcha sohalarga raqamlashtirish, “yashil” va innovatsion texnologiyalar jadal kirib bormoqda. Yurtimizda yangi-yangi zamonaviy sanoat va energetika majmualari, avtomobil va temir yo‘llar, texnopark va IT-parklar, “aqlli” va elektron boshqaruv tizimlari barpo etilmoqda.

Shahar va qishloqlarimiz, butun mamlakatimiz qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda. Qisqa muddatda maktab, maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim, sport va turizm sohalarini rivojlantirish bo‘yicha ulkan qadamlar qo‘ydik. Tibbiyot sohasida ham chuqur islohotlar olib borilmoqda.

Aholini zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlash borasida ilgari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan natijalar qo‘lga kiritilmoqda.

E’tibor qiling, bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p — 134 trillion so‘m mablag‘ ajratildi. Bu — 2016-yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan **O‘zbekiston — ijtimoiy davlat** degan qoidaning amaliy hayotimizdagi tasdig‘ini birgina ana shu misolda ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu ishlar dastlabki qadamlar bo‘lib, kelgusida yanada kengayib boradi.

Xabaringiz bor, bu yil **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini** qabul qildik. Bu muhim hujjatda o‘z oldimizga aniq maqsadlar qo‘yib, marrani baland oldik. Ushbu strategiyaga muvofiq, 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobar oshirib, 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromad miqdorini esa o‘rtacha 4 ming dollarga yetkazishni reja qilganmiz.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz.

Afsuski, bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti.

Ana shunday g‘oyat murakkab va tahlikali vaziyatda O‘zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to‘g‘ri yo‘lni topish albatta oson bo‘lmayapti. Biz dunyodagi uzoq-yaqin barcha davlatlar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilyapmiz.

Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik.

Yaqinda “Milliy tiklanish” gazetasida O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Jadidlar” degan she’rini o‘qib qoldim. Hurmatli shoirimiz “Jadidlar yetishmayapti, jadidlar”, deb, bugungi kunda ko‘pchilik xalqimizni, jumladan, meni ham qiynayotgan savollarga javob izlagan.

Chindan ham mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi G‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur. Lekin ularni kim tarbiyalaydi? Albatta, o‘zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz zarur.

Yaqinda poytaxtimizda o‘tkazilgan **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzusidagi konferensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otganidan barchangiz xabardorsiz.

Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida alohida Prezident qarori qabul qilinadi. Jumladan, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi bunyod etiladi.

Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Ana shu ishlarimizni davom ettirish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, “Shahidlar xotirasi” jamg‘armasi hamda jamoatchilik vakillarining “Jadid” nomli yangi gazeta va uning elektron versiyasini tashkil etish haqidagi tashabbusini biz albatta qo‘llab-quvvatlaymiz.

Aziz do‘stlar!

O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?

Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi.

Albatta, biz dunyo miqyosidagi iqtisodiy inqiroz va pandemiya ta’siriga qaramasdan, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan uchrashuv hamda 2021-yil 19-yanvardagi Kengash yig‘ilishidagi muloqotlar davomida sizlar bilan ko‘plab masalalar bo‘yicha aniq yechimlarni topgan edik.

Bu haqda gapirganda, Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hamda Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etilganini aytish o‘rinlidir. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi. Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash uchun har yili 45 milliard so‘mdan mablag‘ ajratyapmiz.

Markaz tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar bilan birgalikda joylarda ko‘plab tadbirlar o‘tkazmoqda. Xususan, “Ma’rifat ulashib” va “Kitob karvoni” aksiyalari doirasida 200 mingga yaqin nomdagi kitoblar aholiga bepul tarqatildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning hududiy bo‘linmalari tomonidan 11 mingdan ortiq media mahsulotlari tayyorlandi.

Bu boradagi ishlarimizni yanada jadallashtirish uchun 2024-yildan boshlab har yili 100 milliard so‘mdan mablag‘ ajratiladi.

Milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo‘lgan madaniyat, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo‘yicha ham katta ishlarni amalga oshirdik. Ayniqsa, “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilganimiz, 15-aprel sanasini Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilaganimiz soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Milliy an’analarimizni asrab-avaylash va boyitish maqsadida Maqom, Baxshichilik va Askiya san’ati markazlari tashkil etildi. Shuningdek, “Bahor” raqs ansambli, Davlat filarmoniyasi, Davlat simfonik orkestri kabi 20 dan ortiq muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan davrda 11 ta yangi muzey, 2 ta teatr, 28 ta bolalar musiqa va san’at maktabi, 5 ta oliygoh, jumladan, yangi avlod jurnalistlarini tayyorlash maqsadida O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.

Shu o‘rinda muhim bir raqamga e’tibor berishingizni so‘rayman. Madaniyat va san’at sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hajmi 2017-yilga nisbatan 5 karra oshib, 2023-yilda bu maqsadlar uchun 712 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.

Biz boy va betakror madaniy merosimizni dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha alohida tizim yaratdik. Mamlakatimizda muntazam o‘tkazib kelinayotgan “Maqom”, “Baxshichilik”, Hunarmandchilik, “Lazgi” kabi xalqaro festivallar shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Davomi 2-betda

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi

Boshlanishi 1-betda

Bu boradagi katta ishlarimizdan yana biri — 24 ta xorijiy mamlakatda, jumladan, qo‘shni davlatlarda ham “O‘zbekiston madaniyati kunlari” yuqori saviyada o‘tkazildi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Xitoy, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda namoyish etilgan milliy madaniyatimizning noyob namunalari dunyo jamoatchiligini hayratga solgani va ular O‘zbekistonni o‘zlari uchun yangitdan kashf etgani barchamizni quvontiradi.

Bu ishlarni albatta davom ettiramiz va kelgusida Italiya, Buyuk Britaniya, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklarida ham ana shunday ko‘rgazmalar tashkil qilinadi.

Keyingi yillarda UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi, Buxoro shahri “Ijodkor shaharlar tarmog‘i”ga kiritilganini ta’kidlash lozim. Shu yil sentyabr oyida UNESCO Bosh qarorgohida buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani ham muhim voqea bo‘ldi.

Xalqaro maydonda madaniy diplomatiyamizning o‘rni tobora ortib bormoqda. Xabaringiz bor, UNESCO Bosh konferensiyasi sessiyalari qariyb 40-yildan buyon faqat Parijda o‘tkaziladi. 2025-yilda esa bu konferensiyaning sessiyasini birinchi marta boshqa shaharda, ya’ni, Samarqandda o‘tkazish belgilandi. Ushbu nufuzli anjumanga Tashkilotga a’zo barcha davlatlardan vakillar tashrif buyuradi.

Hech shubhasiz, bu — O‘zbekiston uchun katta ishonch, ayni paytda mas’uliyat hamdir. Shu sababli bu yirik xalqaro tadbirga hozirdan puxta tayyorgarlik ko‘rishni boshlashimiz kerak.

Bu yil Toshkent shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOYning 30 yillik yubileyi yuqori saviyada o‘tkazildi.

Bir asrdan ziyod tarix va an’analarga ega bo‘lgan o‘zbek kino san’ati ham taraqqiyot yo‘liga chiqib bormoqda. Eng muhimi, xalqimizga manzur bo‘ladigan kino asarlari paydo bo‘lyapti. Buyuk sarkarda va davlat arboblarimiz, ulug‘ allomalar, madaniyat namoyandalarimiz haqida tarixiy filmlar yaratilmoqda.

Qariyb chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivalini qayta tikladik. 2021-yildan buyon har yili jahonning 50 dan ortiq mamlakatidan yuzlab kino ijodkorlar O‘zbekistonga tashrif buyurmoqda. Alisher Navoiy nomidagi kino saroyi zamonaviy qiyofaga ega bo‘ldi, yangi “Renessans” kino uyi barpo etildi. Milliy filmlar yaratish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar hajmi ham tobora ortib bormoqda.

Aziz do‘stlar!

Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini, ezgu g‘oyalarni tarannum etishda o‘zbek adabiyoti boshqa madaniyat sohalari uchun hamisha mustahkam zamin bo‘lib kelgan.

Biz zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda Adiblar xiyobonini, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosini barpo etdik. O‘lkamizning bahavo hududlarida yangi ijod uylarini qurdik. Samarali ijod qilayotgan adiblarimiz imtiyozli asosda yangi uy-joylar bilan ta’minlandi. Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun har yili qariyb 25 milliard so‘m ajratilmoqda.

Yosh iste’dod egalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminari qayta tiklandi. Navqiron shoir va yozuvchilarning birinchi kitoblari katta tirajlarda nashr etilmoqda. Atoqli ijodkorlarimizning tavallud sanalarini keng nishonlash yaxshi an’anaga aylandi.

Birinchi marta nashr etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari”, 30 jilddan iborat “Mustaqillik davri navoiyshunosligi”, “Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari”, “Mard askarga sovg‘a” singari adabiy majmualar ma’naviy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz bu yig‘ilishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdik. Milliy ma’naviyatimiz va madaniyatimizni rivojlantirish bo‘yicha taniqli olimlar, shoir va adiblar, san’atkorlar, rassom va jurnalistlar, ekspert va mutaxassislarning fikrlarini oldik.

Mening topshirig‘imga binoan Vazirlar Mahkamasi Bosh vazir A.Aripov rahbarligida bu masalalarni sinchiklab o‘rganib chiqdi. Tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, madaniyat sohasi faollari bilan alohida yig‘ilish ham o‘tkazildi. Ko‘pgina masalalar o‘sha majlisning o‘zida hal qilindi va yana ba’zi muammolar ham aniqlandi.

Men bugungi majlis uchun tayyorlangan barcha tahliliy materiallar bilan batafsil tanishib chiqdim. Shu asosda eng muhim vazifalarga qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqishimiz lozim. Bu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablari hisobga olinishi zarur. Mana, biz Asosiy qonunimizdagi fundamental prinsiplardan kelib chiqib, **Dunyoviy davlat konsepsiyasi**ni ishlab chiqyapmiz.

Nima uchun bunga zarurat tug‘ilmoqda?

O‘zingiz ko‘ryapsiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan chetdan, ba’zan hatto mamlakatimizning o‘zida ham Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar ilgari surilmoqda.

Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo‘yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo‘lmoqda. Ko‘p xotinlik, ayol kishi ishlamasdan uyda o‘tirishi, o‘qimasligi kerak, dunyoviy qadriyatlar harom, degan soxta “da’vat”lar yangramoqda.

Ulug‘ ma’rifatparvar Ibrat domlaning: **“Millatni kim isloh etar? Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur”**, degan hikmatli so‘zlarida chuqur ma’no bor.

Fursatdan foydalanib, men muhtaram ulamolarimiz, din peshvolarini inson qadrini ulug‘lash, tinchlik va bag‘rikenglik muhitini mustahamlashga qaratilgan islohotlarimizda faol bo‘lishga, o‘zlarining ma’naviy fazilatlari bilan boshqalarga o‘rnak ko‘rsatishga chaqiraman.

Ma’lumki, keyingi yillarda haj, umra ziyoratlariga keng yo‘l ochilyapti. Minglab fuqarolar mana shunday qutlug‘ ziyoratlarga borib kelayotganiga hammamiz guvohmiz.

Bu borada ilgari ham aytgan bir fikrimni takrorlamoqchiman: hajga, umraga borib kelgan har bir yurtdoshimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerak. Afsuski, hamma joyda ham shunday bo‘lmayapti. Ziyorat bahona o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, manmanlikka berilish kabi bizga yarashmaydigan xunuk holatlar ko‘zga tashlanmoqda. Bular albatta barchamizni o‘ylantirishi kerak.

O‘zbekiston musulmonlari idorasi, xususan, muftiy hazratlari, hurmatli shayx Nuriddin Xoliqnazarovning diniy ma’rifat sohasida olib borayotgan sa’y-harakatlarini barchamiz qo‘llab-quvvatlaymiz.

Xabaringiz bor, keyingi paytda korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha tezkor tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zini “ko‘cha” deb ataydigan jinoiy guruhlar bo‘ladimi, korrupsiyaga berilgan mansabdor shaxslar bo‘ladimi, kim qonunga bepisand munosabatda bo‘lib, davlat va jamiyatga zarar yetkazadigan bo‘lsa, biz bunga hech qachon jim qarab turolmaymiz. Ko‘chalarimiz, mahallalarimiz, hayotimiz tom ma’noda tinch va toza, jinoyatdan xoli bo‘lishi kerak.

Shu munosabat bilan mahalla faollari, hurmatli ayollarimiz va muhtaram nuroniylarimizga, ayniqsa, katta orzu-umidlar bilan hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Azizlarim, tarbiyasi izdan chiqqan nopok kimsalardan ogoh bo‘laylik!

Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik!

Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q.

Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz.

Yangi O‘zbekistonda qonun ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar bo‘lishi shart. Va albatta shunday bo‘ladi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda hokimlarning mas’uliyatini keskin oshirishimiz zarur. Hududlar rahbarlari bir haqiqatni bilib olsin: sizlarning faoliyatingizga ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarning sifati va samarasiga qarab baho beriladi.

Shu yil noyabr oyida mening topshirig‘im bilan markazdan borgan mas’ul shaxslar ishtirokida 14 ta hududda Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining yig‘ilishlari o‘tkazildi. Afsuski, aksariyat hokimlar o‘zlari rahbarlik qilayotgan hududdagi ma’naviy tarbiya ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘ygan. Masalan, Andijon viloyati Xonobod shahri hokimi Tojiboyevning respublika ishchi guruhiga ochiqdan-ochiq “Ma’naviyat men uchun oxirgi o‘rindagi masala” deganini qanday tushunish mumkin?

Yana bir misol, 2021-2023-yillarda 195 ta tuman va shaharda Ma’naviyat va ma’rifat maskanini barpo etish bo‘yicha manzilli ro‘yxatni tasdiqlagan edik. Bu borada Sirdaryo viloyatida 11 ta, Surxondaryo viloyatida 15 ta maskanning barchasi foydalanishga topshirilib, Prezident qarori ijrosi to‘liq bajarilganini qayd etish lozim. Lekin ayrim joylarda bu ishlar oxiriga yetkazilmagan. Misol uchun, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Toshkent, Andijon, Jizzax viloyatlari va Toshkent shahrida qaror ijrosi to‘liq bajarilmaganini qanday izohlash mumkin?

Bosh vazir A.Aripov Iqtisodiyot va moliya vaziri J.Qo‘chqorov, Prezident Administratsiyasi departament rahbari Q.Quronboyev, hududlar rahbarlari bilan birgalikda bir oy muddatda har bir tumanda Ma’naviyat maskani qurish va uning ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni chuqur o‘rganib, ularni reja-jadval asosida ishga tushirish choralarini ko‘rsin.

Ta’kidlab aytmoqchiman: **bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!**

Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim. Yaqinda Surxondaryo viloyatida bo‘lgan uchrashuvda ziyolilarimiz tomonidan bildirilgan taklif asosida hududlarda faoliyat olib borayotgan 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektorini tashkil etamiz.

Ta’kidlash kerakki, ma’naviyat sektori mahalliy davlat hokimiyati hamda joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu sektor faoliyati uchun ma’naviyat va ma’rifat kengashlari rahbarlari, ya’ni hokimlar shaxsan mas’ul va javobgar bo‘ladi.

Biz bu tashabbusni kelgusi yili Surxondaryo viloyatida sinovdan o‘tkazamiz. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (Hojimatov) 10 kun muddatda ma’naviyat sektorining tashkiliy tuzilmasi va nizomini ishlab chiqsin. 2024-yil yanvardan boshlab respublika seminarini o‘tkazib, mart oyiga qadar Surxondaryo viloyatida ushbu sektor faoliyatini to‘liq ta’minlasin.

Uchinchidan, yoshlarimizni milliy va umumbashariy g‘oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, teatr san’atining katta o‘rni bor. Hozirgi kunda mamlakatimizda 40 ta teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har yili 40 ta yangi spektaklga davlat buyurtmasi berilmoqda. Buning uchun shu yilning o‘zida 15 milliard so‘m ajratildi.

Joriy yilda teatr va kino dramaturgiyasini rivojlantirish maqsadida respublika “Nigoh” ijodiy seminari o‘tkazildi.

Ayni paytda joylarda madaniyat maskanlari, xususan, teatrlarning ahvoli qanday, hokimlarimiz ularning holidan xabardormi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Agar hozir “Qani, oxirgi bir oyda qaysi teatrga bordingiz, qanday yangi kitob o‘qidingiz?”, deb so‘rasam, o‘ylaymanki, aksariyat rahbarlar xijolat bo‘lib qolishi mumkin. Holbuki, rahbar-yetakchilar ijtimoiy dunyoqarash, madaniy saviya bo‘yicha boshqalarga o‘rnak bo‘lishlari kerak.

Shu maqsadda, barcha korxona va muassasalarda oyning bir kunini “Teatr kuni” deb e’lon qilib, xodimlarning teatrlarga borishini yo‘lga qo‘ysak, o‘ylaymanki, har tomonlama foydali bo‘ladi.

Mening o‘zim madaniyat vazirimizga, yaxshi spektakl bo‘lsa, vaqt topib, teatrga albatta boraman, deb bir necha marta aytganman. Lekin negadir hozircha ulardan aniq bir taklif bo‘lmayapti.

Teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha madaniyat vazirligiga (O.Nazarbekov) bir oy muddatda dastur loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish vazifasi topshiriladi. Ushbu dasturda tarixiy va zamonaviy mavzular bo‘yicha 20 ta eng yaxshi pyesa uchun ijodiy buyurtma berish orqali dramaturglarga 50 million so‘mdan qalam haqi to‘lash tizimini joriy etish, 50 nafar ijodiy va yordamchi xodimlarning rivojlangan davlatlar teatrlarida mahorat oshirishini yo‘lga qo‘yish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish va g‘oliblarni munosib taqdirlash kabi tadbirlar aks ettirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Bunga qo‘shimcha ravishda besh yillik dasturga binoan teatrlar to‘liq ta’mirlanib, eng ilg‘or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi. Bu ishlarga Bosh vazir A.Aripov mas’ul etib belgilanadi.

To‘rtinchidan, madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda mamlakatimizdagi mavjud 837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim.

So‘nggi yillarda yurtimizda 43 ta madaniyat markazi yangidan qurildi, 344 ta madaniyat markazida ta’mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda bunday markazlarda 4 mingga yaqin to‘garak faoliyat ko‘rsatmoqda, ularda 120 mingdan ortiq yoshlar shug‘ullanmoqda. Masalan, Farg‘ona shahar madaniyat markazidagi 81 ta to‘garakka 1000 ga yaqin farzandlarimiz qamrab olingani e’tiborga loyiq.

Afsuski, hamma joyda ham markazlar faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilmagan. Respublika bo‘yicha 167 ta madaniyat markazi o‘z binosiga ega emas, 283 ta bino avariya holatida, jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj mavjud. Oqibatda 4 mingta mahallada yashayotgan aholi madaniy xizmatlardan foydalana olmayapti.

Endi bu tizimni tubdan o‘zgartiramiz. Ya’ni joylardagi madaniyat markazlari uchun hokimlar bevosita javob beradi. Kelgusi yildan boshlab har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari mavjud bo‘lgan 1 tadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilib, bunga 100 milliard so‘m yo‘naltiramiz.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini rivojlantirish, mavjud ijro va ijodiy maktablarni, bu boradagi an’analarni ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash ishlarini yanada kuchaytiramiz.

Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo‘shiqlari “oltin fond”ga yozib olindi. Maqom san’atini rivojlantirish, uni qorong‘ulikdan yorug‘likka olib chiqish yo‘lida jonbozlik ko‘rsatayotgan san’atkorlarimizga har qancha rahmat aytsak, arziydi.

Xalq og‘zaki ijodi durdonalarini keng targ‘ib etib kelayotgan baxshilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Madaniyat vazirligiga san’atimizning “oltin fond”iga kiritilgan mumtoz va estrada musiqa asarlarini, folklor namunalarini raqamlashtirib, internetda keng targ‘ib etish choralarini ko‘rish topshiriladi.

Kuni kecha nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishga doir muhim bir qarorni imzoladim. Unda, jumladan, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlari hamda Farg‘ona — Toshkent, Xorazm, Buxoro maqom yo‘llaridagi musiqa asarlarini ilmiy tadqiq etishga 28 ta maqsadli grant ajratish bo‘yicha vazifalar aniq belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Yana bir muhim yangilik — maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi 12 ta noyob madaniy meros namunalari bo‘yicha an’analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, milliy madaniyatimiz rivojida muhim o‘ringa ega bo‘lgan musiqa va raqs san’atini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, “Bahor” raqs ansamblini bino bilan ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi bildirgan taklifni qo‘llab-quvvatlaymiz. Bundan buyon “Bahor” jamoasi ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida faoliyat yuritadi.

Taniqli ashula va raqs ansamblarining xorijga gastrol safarlari ko‘paytiriladi. Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi.

Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosini ta’mirdan chiqarish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ko‘riladi. Bosh vazir A.Aripov bu masala bo‘yicha 1 oy muddatda qaror loyihasini kiritsin.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanishtirish ishlarini yangi bosqichga ko‘taramiz.

Kelgusi yili Toshkentda kreativ iqtisodiyotga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyani, Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumanini o‘tkazamiz.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha alohida qonun qabul qilish ham kun tartibidagi dolzarb masaladir.

Buxoroning tarixiy hududida 2025-yilda ilk bor xalqaro tasviriy san’at anjumani o‘tkaziladi. UNESCO mezonlari asosida bu qadimiy shaharning master va menejment rejalarini ishlab chiqamiz.

Umuman olganda, 2024-yildan boshlab yurtimizda madaniyat va san’at festivallari va boshqa tadbirlarni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etamiz. Barcha festivallarimiz tom ma’noda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yuksaltirish va yurtdoshlarimizning madaniy saviyasini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Yana bir masala. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Eksponatlarni saqlash va muhofaza qilish bo‘yicha barcha muzeylar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi va eng noyob eksponatlar markirovka qilinadi.

Innovatsion texnologiyalar asosida tarix muzeyi hamda san’at muzeyining zamonaviy yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta’mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi.

Fransiya davlati bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yamiz. Bugungi kunga qadar xorijiy restavratorlar bilan birga 238 ta madaniy boylik restavratsiya qilindi.

Muqaddas kitob — Usmon Qur’oni sahifalari ham konservatsiya va restavratsiya qilinadi.

Yurtimizning ko‘hna tarixiga bag‘ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiramiz. Shuningdek, Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog‘lari qayta tiklanadi, “Buyuk ipak yo‘li” muzeyini barpo etamiz va Bibixonim majmuasini restavratsiya qilamiz.

Sakkizinchidan, kino sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar davom ettiriladi.

Hozirgi vaqtda “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan 50 ta badiiy film yaratish bo‘yicha farmon loyihasi tayyorlanmoqda. Shu asosda tarixiy filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur ijrosiga nafaqat mahalliy, balki xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar jalb etiladi.

Butun dunyoda kino nafaqat ijod, balki iqtisodiyot tarmog‘i hamdir. Ushbu ikki yo‘nalish o‘zaro uyg‘un rivojlanishi uchun tegishli ishlarni amalga oshirish kerak.

Buxoro viloyati hokimi B.Zaripov, Samarqand viloyati hokimi E.Turdimov, Toshkent viloyati hokimi Z.Mirzayev ikki hafta muddatda o‘z viloyatlarida erkin iqtisodiy kinohududlar barpo etish bo‘yicha loyihalarni boshlasin.

Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov), Kinematografiya agentligi (F.Abduxoliqov) tegishli vazirlik va hokimliklar bilan birgalikda 1 oy muddatda yuqorida ko‘rsatilgan barcha masalalarni hal qilish bo‘yicha qaror loyihasini kiritsin. Unda, jumladan, buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animatsion filmlar yaratish nazarda tutilsin. Keyinchalik ushbu filmlar qahramonlarini o‘yinchoqlar, o‘quv daftarlari va boshqa mahsulotlarda aks ettirib, farzandlarimiz ongiga singdirishimiz lozim.

Hozirgi vaqtda dunyo media olamida tele va kino seriallar jadal rivojlanmoqda. Dastlab ko‘ngilochar va maishiy mavzularda paydo bo‘lgan seriallar bugungi kunga kelib, turli davlat va millatlarning muayyan maqsadlarini targ‘ib etish vositasiga aylanib bormoqda.

Savol tug‘iladi: xalqimiz televizorni eng ko‘p ko‘radigan paytlarda, ya’ni “praym-taym” vaqtida xorijiy seriallarga katta o‘rin berayotganimiz qanchalik to‘g‘ri?

Albatta, bularning barchasi oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Jumladan, milliy seriallar ishlab chiqarish bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, bu yo‘nalishda ijodkorlarimizni qo‘llab-quvvatlash lozim.

Aynan shu yo‘l bilan milliy seriallarimizni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali, hamma qiziqib ko‘radigan darajaga yetkazish mumkin.

Shu maqsadda Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasini yaratish zarur. Unda, avvalambor, mahalliy ijodkorlarimizga, xususan, ijrochi san’atkorlar, dramaturg va rejissyorlarimiz uchun zamonaviy sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratish o‘rinli bo‘ladi, deb o‘ylayman. Buning uchun IT-park kabi erkin iqtisodiy zona — Cinema-park tashkil etish lozim.

Shu munosabat bilan Bosh vazir A.Aripov Cinema-park uchun davlat-xususiy sheriklik asosida Toshkent viloyati hududidan 50 gektar yer maydoni ajratish bo‘yicha taklif kiritsin.

Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov), Prezident Administratsiyasi departament rahbarlari O.Abdurahmonov, K.Allamjonov 1 oy muddatda Milliy seriallar ishlab chiqarish konsepsiyasi loyihasini tayyorlab kiritsin.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirish uchun alohida dastur qabul qilamiz. Ushbu dastur asosida, jumladan, Markaziy ko‘rgazmalar zali jahon standartlari asosida rekonstruksiya qilinadi va jihozlanadi, poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi.

Tanlov asosida 20 nafar iste’dodli yosh rassom va haykaltarosh, san’atshunos va muzeyshunoslar xorijiy mamlakatlarga stajirovkaga yuboriladi.

Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etiladi.

Yana bir muhim masala — madaniyat va san’at sohasida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha jiddiy o‘zgarish qilishimiz shart. Ayni vaqtda respublikamizdagi 323 ta musiqa va san’at maktabida 14 mingdan ortiq o‘qituvchi va konsertmeyster faoliyat yuritmoqda. Lekin ularning oylik ish haqi miqdori umumta’lim maktablari pedagoglarining maoshidan 1,5 barobar kam.

Ota-onalar tomonidan to‘lanadigan pullar maktablarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va o‘quvchilarning ijodiy tanlovlarda ishtirokini ta’minlash uchun yetmaydi. O‘tgan 10 oyda shunday to‘lovdan tushgan 61 milliard so‘mning 40 foizi yoki 25 milliard so‘mi kommunal xarajatlarga sarflangan.

Iqtisodiyot va moliya vaziri J.Qo‘chqorov, madaniyat vaziri O.Nazarbekov ikki hafta muddatda musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha taklif kiritsin.

Umuman olganda, madaniyat va san’at, kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning oyliklarini bosqichma-bosqich oshirish yuzasidan zarur choralar ko‘riladi. Jumladan, ularning ish haqi 2024-yil 1-apreldan 20 foizga, 2025-yil 1-yanvardan yana 15 foizgacha bo‘lgan miqdorda oshiriladi. Buning uchun davlat byudjetidan 2024-yilda qo‘shimcha ravishda 150 milliard so‘m, 2025-yilda esa 200 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, madaniyat va san’at sohasini rivojlantirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun yangi yilda qo‘shimcha ravishda 100 milliard so‘m ajratiladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Keyingi paytda mamlakatimizda **o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish** bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu ishlarimizni davom ettirgan holda, umumta’lim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish masalasiga bundan buyon ham alohida e’tibor qaratamiz.

Hech shubhasiz, o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari ham xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan boshqa fan o‘qituvchilaridan kam bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha haq bilan ta’minlanishi kerak. Bu albatta adolatdan bo‘ladi.

Shu maqsadda milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to‘lanadi. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda qo‘shimcha 10 milliard so‘m, 2025-yilda esa 30 milliard so‘m ajratiladi.

Shuningdek, boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish bo‘yicha ham alohida mexanizmlar joriy etiladi. Xususan, ular bu borada maxsus sertifikatga ega bo‘lsa, o‘qish xarajatlari davlat tomonidan qoplab beriladi.

Davomi 3-betda

MA’NAVIYAT HAYOTIMIZDA YANGI KUCH, YANGI HARAKATGA AYLANISHI KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi

Boshlanishi 1-, 2-betlarda

Bundan tashqari, o‘zbek tilidan boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi. O‘zbek tili bo‘yicha ham xalqaro fan olimpiadasini o‘tkazamiz. Olimpiadaning g‘olib va sovrindorlari pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Shuningdek, ular mamlakatimiz oliygohlarining o‘zbek filologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul qilinadi.

Hurmatli do‘stlar!

Jamiyatimizda **kitobxonlik madaniyatini oshirish** bo‘yicha boshlagan ishlarimiz davom ettiriladi. Kelgusi yildan milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ko‘pming nusxalarda chop etish va barcha kutubxonalarga yetkazib berish choralari ko‘riladi.

Shu bilan birga, har yili eng yaxshi badiiy asarlar yaratish, tarjima qilish uchun ijodiy buyurtmalar berilib, muallif va tarjimonlarga munosib qalam haqi to‘lanadi.

Yaqinda **“Yoshlar uchun — ming kitob”** loyihasini amalga oshirish bo‘yicha alohida qaror qabul qildik. Unga ko‘ra, kelgusi yildan boshlab farzandlarimizga rag‘bat beradigan eng mashhur ilmiy-ommabop kitoblarni o‘zbek tiliga tarjima qilib, maktab va kutubxonalarga bepul tarqatish yo‘lga qo‘yiladi.

Albatta, bilimdon, zukko olimlarimiz, dunyo madaniyatiga juda katta hissa qo‘shayotgan vatandoshlarimiz ko‘p. Lekin, afsuski, ular bolalar olamiga yaqin emas. Vaholanki, dunyoga mashhur olimlarning ko‘pchiligi bolalarga atab kitoblar ham yozishgan. Masalan, Albert Eynshteyn o‘zining murakkab nazariyasini bolalar uchun maxsus sharhlab, alohida kitob chiqargani ma’lum.

Biz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz haqida, deb ko‘p gapiramiz. Ammo bolalarimiz ularning qaysi asarini o‘qiy oladi? Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi deymiz, lekin ularning bolalik davrini kim biladi?

Demak, ana shunday allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerak.

Fursatdan foydalanib, men o‘z sohasida ilmiy maktab yaratgan hurmatli olimlarimizni adiblar va noshirlar bilan hamkorlikda bolalar uchun qiziqarli va sermazmun kitoblar yaratishga chaqiraman. Bu ishlarni rag‘batlantirish, yangi bosqichga ko‘tarish uchun kelgusi yili mamlakatimizda **Xalqaro bolalar adabiyoti ko‘rgazmasi**ni tashkil etamiz.

Yurtimizda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, turli yo‘nalish va mavzudagi adabiyotlarni chop etishni ko‘paytirish uchun nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash zarur. Shu maqsadda ushbu korxonalar 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi. Shuningdek, ularga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Albatta, bu zalda o‘tirgan adiblarimiz tarjima san’atining naqadar mashaqqatli ish ekanini yaxshi biladilar. Mana shunday mas’uliyatli mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun ulug‘ shoir va tarjimon **Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni** ta’sis etsak, nima deysizlar?

So‘nggi yillarda kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishga katta e’tibor beryapmiz. Ayniqsa, Respublika bolalar kutubxonasi rekonstruksiya qilinganidan so‘ng bu yerda yangi ma’rifiy hayot boshlandi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Mening nevaralarim ham shu maskanga katta qiziqish bilan boryapti.

Bu ezgu ishlarimizni davom ettirib, kelgusi yilda Samarqanddagi bolalar kutubxonasini rekonstruksiya qilamiz. Hududlardagi boshqa bolalar kutubxonalarini ham bosqichma-bosqich bolajonlarimizning sevimli maskaniga aylantiramiz.

So‘nggi paytlarda o‘z hisobidan kutubxona barpo etayotgan tashabbuskor insonlar ko‘payib borayotgani barchamizni mamnun etadi. Tasavvur qiling, 100 nafardan ziyod yurtdoshimiz bunday xayrli ishga qo‘l urgan. Masalan, Marhamat tumanida tadbirkor Qobiljon Obidov 50 mingdan ziyod kitob fondiga ega, uch qavatli zamonaviy kutubxona tashkil etgan, bu ziyo maskanida 300 mingta elektron kitob ham mavjud.

Mana shunday insonlar jadidlarning munosib davomchilari, bugungi kun qahramonlari emasmi? U kishi davlatimizning nufuzli ordeni bilan taqdirlangani ham shundan dalolat beradi. Biz barchaga ibrat bo‘layotgan bunday yurtdoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbari Asad Xodjayev 1 oy muddatda xususiy kutubxona tashkil etgan fuqarolar va tadbirkorlarni rag‘batlantirish bo‘yicha qaror loyihasini kiritsin.

Bugungi kunda mamlakatimizda **Internet adabiyotini rivojlantirish** ham muhimdir. Shu maqsadda internetda “O‘zbek madaniyati” portalini yaratib, uning tarkibida adabiyot, kino, tarix, san’at, folklor portali kabi platformalarni tashkil etish va doimiy faoliyat yuritishini ta’minlash zarur. Buning uchun Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbari Asad Xodjayev, Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Saidov, Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Minhojiddin Hojimatov mas’ul va javobgar etib belgilanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi 2 yilda ko‘plab xorijiy mamlakatlarda yurtimiz olim va ijodkorlarining 150 ga yaqin kitoblari, folklorimiz namunalari nashr etilgan. Ayni vaqtda adabiyotimiz xazinasida dunyoga namoyish etishga arziydigan asarlar ko‘p.

Bu yo‘nalishda ham ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yib, chet ellik noshir va tarjimonlar bilan mustahkam hamkorlik o‘rnatish maqsadida Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Saidov, Fanlar akademiyasi prezidenti Behzod Yo‘ldoshev, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rahbari Asad Xodjayev alohida dastur ishlab chiqishi lozim.

Qadrli yurtdoshlar!

Ma’lumki, ko‘plab xorijiy davlatlarda **metsenatlik harakati** keng yoyilgan. Bunday ezgu tajriba bizning hayotimizga ham kirib kelayotganini albatta olqishlash kerak.

Ma’lumki, 2017-yildagi uchrashuvimizdan so‘ng ijodiy tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 70 ga yaqin “Do‘stlar klubi” tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda bu yo‘nalishda 85 milliard so‘m homiylik yordami ko‘rsatilgan.

Afsuski, keyingi vaqtlarda “Do‘stlar klubi” faoliyati ba’zi yo‘nalishlar bo‘yicha to‘xtab qoldi. Bosh vazirning menga bergan axborotiga ko‘ra, yuqorida zikr etilgan yig‘ilishda bu masala ham atroflicha muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar ko‘rilgan. Shundan so‘ng homiylar tomonidan madaniyat muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun 38,5 milliard so‘m mablag‘ o‘tkazib berilgan.

Fursatdan foydalanib, madaniyat va san’atimizning sadoqatli do‘stlari bo‘lgan ushbu tashkilotlarga, ularning mehnat jamoalariga sizlarning nomingizdan, o‘z nomimdan tashakkur bildiraman.

Endi bu tajribani doimiy ishlaydigan tizimga aylantirish zarur.

Hozirgi vaqtda **matbuot nashrlarining obunasi** bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjudligini bilamiz. 2022-yil 27-iyundagi Prezident qarorida budjet tashkilotlariga kutubxona fondi xarajatlari orqali davriy bosma nashrlar, ularning elektron shakli va elektron ommaviy axborot vositalariga obuna bo‘lish uchun mablag‘ yo‘naltirishga ruxsat beriladi, deb ko‘rsatilgan.

Demak, masalaning aniq yechimi bor. Faqat buni amalga oshirishimiz kerak.

Muhtaram do‘stlar!

Albatta, bugungi uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar faqat ma’naviyat, madaniyat va ijod sohalari rahbarlariga tegishli emas. Bularni — qayerda, qaysi lavozimda ishlamaylik barchamizga birdek daxldor vazifalar, deb qabul qilishimiz lozim.

Shu bois, har bir vazir va hokim o‘zining bu boradagi mas’uliyatini chuqur his etishi, bugun bu yerda ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha amaliy ishlarni boshlashi zarur.

Bosh vazir A.Aripov madaniyat va san’atni rivojlantirish bo‘yicha ishlarning holatini har chorakda Hukumat rayosatida tarmoq va hududlar kesimida muhokama qilib boradi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugun sizlar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, madaniyat, adabiyot va san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha ochiq gaplashib oldik.

Bu borada bildirilgan fikrlar, ana shu muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaganingiz, taklif va tavsiyalaringiz uchun barchangizga chin dildan minnatdorchilik bildiraman.

Albatta, bugun ushbu zalda aytilgan fikr-mulohaza va tashabbuslarning har biri chuqur o‘rganib chiqiladi. Eng muhim va dolzarb masalalar bo‘yicha tegishli farmon va qarorlar qabul qilib, ularning ijrosini ta’minlash yuzasidan zarur choralarni ko‘ramiz.

Shu ma’noda, bugungi uchrashuv ma’naviy hayotimizda yangi islohotlar davrini boshlab beradi, deb ishonaman.

Hammamiz bir haqiqatni unutmasligimizni istardim. Hayot bor ekan — jaholat ham, ma’naviy tahdidlar ham bo‘lishi tabiiydir. Ammo eng xatarlisi — yurt kelajagiga loqaydlik, ezgu qadriyatlarga nisbatan beparvolikdir.

Tinch va farovon hayot qurish uchun, avvalo, odamlar qalbida bir-biriga hurmat, xalqqa, Vatanga mehr va ishonch mustahkam bo‘lishi zarur.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘usini kuchaytirishda siz, madaniyat ahlining o‘rningiz va ta’siringiz beqiyosdir.

Sizlar yuksak iste’dod va mahoratingiz, ijtimoiy hayotimizdagi faol ishtirokingiz bilan yangi Uyg‘onish davrini barpo etishga albatta munosib hissa qo‘shasizlar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni yaqinlashib kelayotgan yangi — 2024-yil bilan chin dildan tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, oilaviy baxt-saodat, ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman.

Doimo sog‘-omon bo‘ling!

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI MA’NAVIYATI YUKSAK XALQIMIZ BILAN BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ

Boshlanishi 1-betda

UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga yana 9 ta milliy merosimiz namunasi, Buxoro shahri “Ijodkor shaharlar tarmog‘i”ga kiritildi. Shu yil sentabrda UNESCO Bosh qarorgohida buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy tavalludi keng nishonlandi.

Kino san’atida ham yangi asarlar paydo bo‘lyapti. Buyuk sarkarda va ulug‘ allomalar haqida tarixiy filmlar yaratildi. Qariyb chorak asrdan keyin Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklandi.

Poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosi, hududlarda yangi ijod uylari qurildi. Samarali ijod qilayotgan adiblar imtiyozli asosda uy-joylar bilan ta’minlandi. Atoqli ijodkorlarimizning tavallud sanalari nishonlandi. Yosh iste’dodlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida Zomin seminari qayta tiklandi.

Birinchi marta nashr etilgan 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari”, 30 jilddan iborat “Mustaqillik davri navoiyshunosligi”, “Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari”, “Mard askarga sovg‘a” singari adabiy majmualar ma’naviy hayotimizda muhim voqea bo‘ldi.

Yig‘ilishda bu sohalar oldidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari 9 ta yo‘nalishda o‘z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasi uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturiy hujjat ishlab chiqish lozimligi ta’kidlandi.

Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi qo‘yish, dunyoviy qadriyatlarni harom deb bilish holatlari afsus bilan qayd etildi. Prezident bu o‘rinda Ibrat domlaning “Ulamo g‘ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur”, degan hikmatli so‘zlarini yodga oldi. Ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma’naviyat targ‘ibotchisi bo‘lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligi aytildi.

Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta’minlanishi, xususan, qiz bolalarning o‘qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta’kidlandi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshiriladi. Tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushiriladi.

— Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak, — dedi Prezident.

Shu maqsadda, Surxondaryo viloyatida bildirilgan taklif asosida hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektori tashkil etilishi ma’lum qilindi. Ular joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchidan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi pyesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabilar nazarda tutiladi.

Korxona va muassasalarda oyning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo‘lga qo‘yiladi.

To‘rtinchidan, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim. Ularda 4 mingga yaqin to‘garak faoliyat ko‘rsatmoqda, 120 mingdan ortiq yoshlar shug‘ullanmoqda.

Lekin ayrim markazlar o‘z binosiga ega emas, jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj bor. Bu borada hokimlarga ko‘rsatmalar berildi.

Shuningdek, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi.

Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo‘shiqlari “oltin fond”ga yozib olindi. Kuni kecha O‘zbekiston Prezidentining nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishga doir qarori imzolandi. Unda, jumladan, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, qadim musiqa asarlarini tadqiq qilish, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Yana bir muhim yangilik — maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an’analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san’ati rivoji qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, “Bahor” raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari ko‘paytiriladi. Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi.

Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosi ta’mirdan chiqariladi.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Kelgusi yili Toshkentda kreativ iqtisodiyotiga bag‘ishlangan konferensiya, Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumani o‘tkaziladi.

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Tarix muzeyi hamda San’at muzeyining yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta’mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi.

Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Muqaddas kitob — Usmon Qur’oni sahifalari konservatsiya va restavratsiya qilinadi.

Yurtimizning ko‘hna tarixiga bag‘ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog‘lari qayta tiklanadi, “Buyuk ipak yo‘li” muzeyi barpo etilib, Bibixonim majmuasi restavratsiya qilinadi.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etiladi. Shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animatsion filmlar yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Kinoni iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida “erkin iqtisodiy kinohududlar” barpo etish vazifasi qo‘yildi.

Milliy seriallar bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, ularni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali darajaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi. Buning uchun IT-Park kabi erkin iqtisodiy zona — “Cinema Park” tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilinadi. Jumladan, Markaziy ko‘rgazmalar zali rekonstruksiya qilinib, jihozlanadi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etiladi.

Sohada ta’lim sifatini yaxshilash, musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini byudjetdan qoplash bo‘yicha takliflar bildirildi.

Davlatimiz rahbari o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratdi. Milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to‘lanishi qayd etildi.

Shuningdek, boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat tilini o‘rganishga rag‘batlantirish choralari ko‘riladi. Boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi. O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi.

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish qo‘llab-quvvatlanadi. Ijodiy buyurtmalar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi ko‘paytiriladi. Nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi.

Prezidentimiz tarjima san’atining ahamiyatiga to‘xtalib, bunday mehnatni munosib rag‘batlantirish uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta’sis etish tashabbusini ilgari surdi.

Internet adabiyotini rivojlantirish ham muhimligi ta’kidlanib, shu maqsadda adabiyot, kino, tarix, san’at, folklor namunalarini qamrab olgan “O‘zbek madaniyati” portalini yaratish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda shoir va yozuvchilar, madaniyat va san’at namoyandalari, soha mutasaddilari o‘z fikr va takliflarini bildirdi.

O‘zA

Zamon bilan

(Dunyo voqealariga)

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Zamondoshlar, zamon bilan o‘ynashmangiz,
Zamon bergan imkon bilan o‘ynashmangiz.

Barchamizga bir Vatan — bir or-u nomus,
Or-u nomus, iymon bilan o‘ynashmangiz.

Dunyoni zabt etganlarmiz hadis bilan,
Qadim ilm-u urfon bilan o‘ynashmangiz.

Yoshlik asli erka jayron — ertan hayron,
Qo‘ldan ketar jayron bilan o‘ynashmangiz.

Ilm bering, ilm istang, ilm izlang,
Umr — obi ravon bilan o‘ynashmangiz.

Ey oshiqlar, kamon bilan o‘ynashingu,
Har xil qoshi kamon bilan o‘ynashmangiz.

Jaholatning kir qo‘ynida toshlari bor,
Har nokas-u nodon bilan o‘ynashmangiz.

Ayo, oyoqlari yerdan uzilganlar,
Yer ustida osmon bilan o‘ynashmangiz.

Najot istang afg‘onlarning afg‘oniga,
Har nola-yu afg‘on bilan o‘ynashmangiz.

Ota makon, ona makon — ikki tomon,
Ota-ona makon bilan o‘ynashmangiz.

Qaldirg‘ochning oshyonin ham buzib bo‘lmas,
Zamin — tanho oshyon bilan o‘ynashmangiz.

Birov qurol otar, birov Qur’on yoqar,
Qurol bilan, Qur’on bilan o‘ynashmangiz.

Jon muqaddas, qon muqaddas, shon muqaddas,
Siz jon-u qon, siz shon bilan o‘ynashmangiz.

Yurt sha’niga so‘z sotib, so‘z o‘ynashganlar,
Har ig‘vo-yu bo‘hton bilan o‘ynashmangiz.

O‘zbekiston — jahon aro jahonoroy,
Jahonoroy — jahon bilan o‘ynashmangiz.

Inson qadri baland turgay har nedan ham,
Inson bo‘ling, inson bilan o‘ynashmangiz.

Haqdan kelar toj-u davlat farmonlari,
Olloh bitgan farmon bilan o‘ynashmangiz.

Davr-u zamon chin mardlarga maydon erur,
Mard bilan ham maydon bilan o‘ynashmangiz.

Bu karvonning sarboni bor, ortga qaytmas,
Ortga qaytmas karvon bilan o‘ynashmangiz.

Zamon xalqning uch ming yillik armonidir,
Uch ming yillik armon bilan o‘ynashmangiz.

19.12.2023-yil

YASHIL ENERGETIKA

EKOLOGIK, IJTIMOIY VA KORPORATIV BOSHQARUV

“O‘ZBEKGIDROENERGO” AJ MAMLAKATIMIZ KOMPANIYA VA KORXONALARI ORASIDA BIRINCHI BO‘LIB XALQARO ESG REYTINGINI OLISHGA MUVAFFAQ BO‘LDI

Gidroenergetikani rivojlantirish aholini nafaqat barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash, balki atrof-muhit va ekologiyani asrashda ham muhim ahamiyatga ega. Keyingi davrda gidroenergetikani isloh qilish bo‘yicha Prezidentimizning bitta farmoni, 7 ta qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori qabul qilingani ham unga bo‘lgan e’tiborni yaqqol namoyon etib turibdi.

Jumladan, davlatimiz rahbarining 2017-yil 18-maydagi farmoniga asosan, “O‘zbekgidroenergo” AJ tashkil etilgan edi. Shundan buyon olti yarim yildan ortiq vaqt o‘tdi. Qolaversa, 2023-yilni yakunlash va sarhisob qilish pallasida turibmiz. Shundan kelib chiqib, “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi, senator Abdug‘ani Sanginov bilan suhbatimiz o‘tgan vaqt mobaynida amalga oshirilgan ishlarga nazar tashlashdan boshlandi.

— Suv — tabiatning ulug‘ in’omi va eng qadrli ne’mat. Uning har qatrasi qadrlanishi va samarali foydalanilishi kerak. Bu bevosita gidroenergetika tizimining faoliyati bilan chambarchas bog‘liq, — deydi Abdug‘ani Sanginov. — 2017-yilda mamlakatimizda daryo va suv omborlari yonida 36 ta katta-kichik gidroelektr stansiya faoliyat ko‘rsatar edi. Achinarlisi, ularning ayrimlari bundan qariyb yuz yil oldin qurilgan bo‘lsa, aksariyati o‘tgan asrning 50-60-yillarida barpo etilgan, texnik jihatdan va ma’nan eskirgan edi.

Ana shunday murakkab bir paytda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilib, uning zimmasiga respublikamizda suv-energetika resurslarini boshqarishning yagona tizimini shakllantirish, yangi ekologik toza energiya hosil qiluvchi quvvatlar tashkil etish, mavjud GESlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, gidroenergetikani rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali sanoat hamda aholining elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini yanada to‘laroq qondirish vazifasi yuklatildi.

Dastavval tizim tarkibidagi barcha inshoot va tashkilotlar xatlovdan o‘tkazildi. Ilmiy va amaliy tahlillar yangi GESlarni qurishda ham, mavjudlarini modernizatsiya qilishda ham jahon andozalariga mos texnologiyalardan foydalanish samarali ekanini ko‘rsatdi. Yana bir muhim jihati, ushbu ishlarga xalqaro moliyaviy muassasalarning uzoq muddatli imtiyozli mablag‘larini jalb etishga ham alohida ahamiyat qaratildi.

O‘tgan davr mobaynida “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan olib borilgan faol islohotlar natijasida jami 36 ta loyiha, jumladan, 23 ta yangi GES qurilib, foydalanishga topshirildi. Mavjud 13 ta GES zamonaviy andozalar asosida modernizatsiya qilindi.

So‘nggi olti yarim yil ichida mamlakatimizda GESlarning umumiy soni 37 tadan 58 taga hamda ularning ishlab chiqarish hajmi 1856 MVt.dan 2233 MVt.ga yetkazildi. E’tiborli tomoni, bu raqamlar so‘nggi yillarda MDH davlatlaridagi eng katta ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda Investitsiya dasturiga muvofiq, jami quvvati 749 MVt.ga teng bo‘lgan 13 ta loyiha doirasida qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

2023-yilda amalga oshirilgan ishlarga keladigan bo‘lsak, Toshkent, Andijon, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida umumiy quvvati 190 MVt.ga teng 8 ta GES, jumladan, 3 ta yirik va 5 ta mikro GES ishga tushirildi. Toshkent viloyatida “Ispaysoy”, Andijonda “Zavroq”, “Xonobod mikro GES”lari, Samarqandda “Shaudar” va “PK 102+00 GES”, Surxondaryoda “To‘polang GES” va “Isfara mikro GES-1” loyihalari shular sirasiga kiradi.

Xabaringiz bor, joriy yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizdagi eng yirik Chorvoq GESdan keyingi o‘rinda turuvchi — modernizatsiyadan so‘ng quvvatlari yangilangan “To‘polang GES” foydalanishga topshirildi. Uning boshqaruvi to‘liq avtomatlashtirilgan va inson omilisiz “aqlli” tizimda ishlaydi.

Mahalliylashtirish ishlari doirasida Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanida “Isfara mikro GES-1” quvvat bera boshladi. U yurtimiz gidroenergetika tizimidagi dastlabki milliy GES hisoblanadi. Sababi, O‘zbekistonda ilk bor mazkur gidroinshoot doirasidagi barcha ishlar, jumladan, loyihalashdan tortib, unga o‘rnatilgan asbob-uskunalargacha to‘liq mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan bajarildi. Jamiyat tarkibidagi “Suvsanoatmash” AJ negizida ushbu inshoot uchun zarur bo‘lgan jihozlar ishlab chiqarildi.

Mintaqamizda so‘nggi yillarda suv kam bo‘lgan mavsumlar tez-tez takrorlanmoqda.

Shunday bo‘lsa-da, “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari natijasida yaratilgan qo‘shimcha quvvatlar evaziga soha salohiyatini nafaqat bir maromda saqlash, balki yildan-yilga mavjud quvvatlarni oshirib borishga ham erishilmoqda.

Joriy yilda jamiyat tasarrufidagi korxonalar tomonidan 7 milliard kilovatt-soatga yaqin elektr energiyasi milliy elektr tarmoqlariga yetkazib berilishi mo‘ljallangan. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichga nisbatan 8 foiz ko‘p demak.

— ESG atamasi O‘zbekistonda hali unchalik ommalashgan emas. Bu tamoyilni joriy etish bo‘yicha yirik kompaniya va jamiyatlar dastlabki qadamlarni qo‘ymoqda, uning talablarini o‘rganish ustida ish olib boryapti. Shunday bir kezda “O‘zbekgidroenergo” AJ mamlakatimizda birinchi bo‘lib xalqaro ESG reytingini olishga muvaffaq bo‘ldi...

— Prezidentimizning shu yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida 2023-2026-yillarda ustav kapitalida davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro ESG (Environment, Social, Governance) tizimini joriy etish, bunda atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillari, shuningdek, barqaror rivojlanish bilan bog‘liq jihatlarni hisobga olish masalalarini jamiyatlar boshqaruv organlarida ko‘rib chiqish vazifasi qo‘yilgan edi. Davlatimiz rahbarining joriy yil 30-martdagi “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 8-bandida ham jamiyatimiz zimmasiga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish va 2025-yilga qadar bu reytingni olish topshirig‘i berilgan. Biz bu topshiriqni muddatidan oldin bajarib, shu yilning o‘zida mazkur reytingni olishga erishdik.

— Shu o‘rinda ESG nima, nima uchun ushbu reytingga ega bo‘lish yirik kompaniyalar uchun muhim hisoblanishiga izoh berib o‘tsangiz?

— ESG tamoyilidagi har bir harf aniq bir yo‘nalishni ifodalaydi. E — inglizcha “environmenta” mezoni kompaniyaning atrof-muhitga qanchalik qayg‘urishini anglatadi. Bu issiqxona gazlari tashlanmalari, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslardan

oqilona foydalanish, ekologik qonunlarga rioya qilish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

S — “social” korxona yoki jamiyatning o‘z xodimlariga, yetkazib beruvchilariga, mijozlarga va boshqa hamkorlariga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Shuningdek, xodimlarning sog‘lig‘i va xavfsizligi, ularning kasbiy rivojlanishi, xavfli mehnat sharoitlari, inson huquqlarini hurmat qilish, tovarlar sifati uchun mijozlar oldidagi mas’uliyat va ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etish mezonlarini ifodalaydi.

G — “governance” boshqaruv samaradorligi, aksiyadorlar huquqlari, audit va korrupsiyaga qarshi kurash, har xil xatarlarni (risk) boshqarishni o‘z ichiga olgan korporativ boshqaruv qoidalaridan iborat.

Ushbu tushunchalarning asosiy mohiyati shundaki, ular yirik kompaniyalarning jamiyat rivojiga hissa qo‘shish, jumladan, xayriya ishlarini bajarish, o‘z xodimlarining haq-huquqlarini ta’minlash, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda ko‘maklashish kabi mas’uliyatli vazifalarni ham zimmasiga olganini namoyon etadi.

— “O‘zbekgidroenergo” AJ ESG tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanday ishlarni yo‘lga qo‘ydi va reyting tufayli qanday afzalliklarga ega bo‘ladi?

— ESG tamoyillarini amalga oshirish uchun jamiyatimiz bu boradagi xalqaro standart va talablarni o‘rganib chiqdi. Avvalo, biz barcha zarur ma’lumotlarni to‘plagan holda, keng qamrovli tahlilni o‘tkazdik. Keyin esa ularni veb-saytimizda xalqaro standartlarga muvofiq ingliz tilida e’lon qildik. Bundan tashqari, jamiyatimiz tomonidan 2022-yil uchun birinchi “Barqaror rivojlanish hisoboti”ni ishlab chiqqanimiz buning poydevori bo‘ldi. Ushbu hujjatda biz ekologik, ijtimoiy rivojlanish va korporativ boshqaruv sohalarida bajarilgan ishlarni ochiq-oshkora taqdim etdik. Chunki o‘z faoliyatiga doir ma’lumotlarni ommaga havola etadigan kompaniyalar sarmoyadorlar e’tiboriga tezroq tushadi.

Ma’lumki, investorlar ESG reytinglarini kompaniyalarning ESG ko‘rsatkichlari bo‘yicha faoliyatini baholashda muhim ma’lumot manbai deb biladi va ularning ijobiy tomonlariga qarab hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar kiritadi. Biz investorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, dunyoda yetakchilar safida turgan va katta nufuzga ega bo‘lgan “Sustainable Fitch” reyting agentligidan O‘zbekistonda birinchi bo‘lib ESG reytingini olishga muvaffaq bo‘lgan edik.

Ijobiy baholash uchun asosiy omillardan biri sifatida jamiyatning atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatiga mas’ul bo‘lgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va kadastr xizmati” bo‘limining mavjudligini keltirish mumkin. Ushbu bo‘lim oqova suv sarfini kamaytirish, havo ifloslanishini minimallashtirish va chiqindilarni utilizatsiya qilish jarayonlarini yaxshilash bo‘yicha faol ish olib bormoqda.

Qolaversa, atrof-muhitni boshqarish tizimiga ISO 14001:2015 talablari joriy etilgan. Bu, o‘z navbatida, ekologik noxush hodisalarning oldini olishda muhim o‘rin tutmoqda.

Jamiyatimizning ekologik talablar, ayniqsa, obodonlashtirish sohasidagi sa’y-harakatlari ESG balida ham ijobiy baholangan. Bunda inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirayotgan tadbirlarimiz va odob-axloq kodeksini hayotga tatbiq etganimiz ham bosh omillar sirasiga kiradi. Ular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini va BMTning Inson huquqlari, mehnat, korrupsiyaga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha global shartnomalariga to‘la-to‘kis mos keladi.

Shu bilan birga, jamiyatda azaldan xayriya tadbirlari va homiylik orqali mahalliy idoralar va fuqarolar bilan o‘zaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratib kelinadi. Bu kabi xayrli ishlar “O‘zbekgidroenergo”ning umumiy barqaror yondashuvining muhim tarkibiy qismiga aylandi va xalqaro ESG reytingini olishga hissa qo‘shdi.

Korporativ boshqaruvga kelsak, bu borada katta hajmdagi ma’lumotlar jamiyatimiz veb-saytida ingliz tilida e’lon qilinishi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, “Komplayens-nazorat” va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi ham o‘z ishini takomillashtirib boryapti.

Investorlar ESG reytinglarini kompaniyalarning bu boradagi ko‘rsatkichlari haqida muhim ma’lumot manbai deb biladi va ba’zi reytinglarga afzallik beriladi. Xalqaro investitsiya va moliya institutlari bilan ishlashda yuqori jozibadorlik kasb etadi, ijobiy imijimizni oshiradi.

— Davlatimiz rahbarining qarorida belgilab berilgan vazifa muddatidan ikki yil ilgari bajarildi. Endilikda ESG reytingi bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni yanada mustahkamlash yo‘lida qanday ishlar oldinda turibdi deb o‘ylaysiz?

— Dunyo yangi bir bosqichga qadam qo‘ymoqda. Bu bosqich global muammolari, umuminsoniy qadriyatlari, o‘zgacha talablari, injiqliklari, ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Axborot aylanish ko‘lami va tezligi nuqtayi nazaridan bag‘oyat kengayib boryapti. Bunday sharoitda ishonch eng asosiy investitsiyaga aylanadi. Zamonning o‘zgarishlari, global trendlarni doimiy kuzatib borish va ularga moslashish esa bugungi biznesning asosiy shartlaridan biri sanaladi. ESG ana shu ishonch va moslashuvchanlik poydevori ustida barpo etilayotgan yangi munosabatlar tizimidir. Usiz hech qaysi kompaniyaning global marralarni ko‘zlashga imkoniyati yo‘q, degan fikrdaman.

Kelajakda ESG strategiyamizni mustahkamlash va rivojlantirish uchun biz bir qator asosiy chora-tadbirlarni amalga oshiryapmiz. Birinchi navbatda, jamiyatning tashkiliy tuzilmasida jiddiy o‘zgarishlar qildik. Biz ESGni amalga oshirish bo‘yicha maxsus bo‘lim tashkil etdik, u hozir barcha yo‘nalishdagi tashkilot va boshqarmalar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Ekologiya sohasidagi tashabbuslarni chuqur tahlil qilish va muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida unga mutasaddi bo‘lgan bo‘lim xodimlari soni ko‘paytirildi. Ular o‘z bilimi va malakasi yuqoriligi bilan xalqaro hamkorlik sohasida, chet el investitsiyasini jalb qilish, davlat-xususiy tashkilotlar bilan ishlashda ibrat ko‘rsatishi va namuna bo‘lishi talab etiladi.

Bundan tashqari, jamiyatda gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha faol ish olib borilyapti va tez orada xalqaro mutaxassisni mustaqil a’zo sifatida kuzatuv kengashimizga jalb qilishni rejalashtirganmiz.

“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati to‘rt yildan buyon jahonda yetakchi top “uchlik” reyting agentliklaridan biri hisoblangan “Fitch Reytings” xalqaro reyting agentligining “BB-” xalqaro kredit reytingini barqaror darajada saqlab kelmoqda. Bundan tashqari, jamiyat 2023-yilda mustaqil kredit reytingini bir pog‘onaga oshirib, uzoq muddatli emitent reytingini “B+” darajaga ko‘tarishga erishdi.

Shuningdek, oshkoralikni ta’minlash maqsadida 2022-2023-yillar uchun xarid jarayonlarini auditdan o‘tkazib, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish (“forenzik”) bo‘yicha dunyoda auditorlik va konsalting xizmatlari ko‘rsatuvchi “katta to‘rtlik” tomonidan jamiyat xarid tizimi bo‘yicha ijobiy audit xulosasi olingan.

Jamiyatning yana bir katta yutug‘i bu uning tasarrufidagi energiya hosil qiluvchi korxonalarda Markaziy Osiyoda ilk bor “Yashil energiya” sertifikati joriy etilganidir. Xususan, Prezidentimizning 2023-yil 12-maydagi “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, energiya hosil qiluvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan quvvatlar uchun birinchi marta “Yashil energiya” sertifikati tizimi tatbiq etildi. Bu boradagi amaliy chora-tadbirlar davom ettirilmoqda.

Ta’kidlash joizki, I-REC sertifikatlarini (“Yashil energiya” sertifikatlari) birja orqali sotish mamlakatga ekologik mas’uliyat va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishga sodiqligini namoyish etish imkonini beradi hamda tabiiy ravishda O‘zbekistonning xalqaro darajadagi ekologik reytingini oshiradi. Ayni paytda bu yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar sohaga xorijiy investitsiyalarni yanada keng jalb etishda o‘ziga xos kafolat vazifasini o‘taydi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Abdurauf QORJOVOV suhbatlashdi.

BUNYODKORLIK

MANZILLARDAN MANZILLARGA KO‘CHAYOTGAN OBODLIK

Purviqor tog‘lar qo‘ynidagi Duoba qishlog‘i dengiz sathidan qariyb 2 ming metr balandlikda, Surxondaryo viloyati markazidan 180 kilometr olisda joylashgan. Tabiatning betakror go‘zalligini ko‘z-ko‘z qiluvchi Duoba, Pastki Duoba, Gumatak va Qayroq qishloqlaridan iborat mahallada 2,5 mingdan ortiq aholi yashaydi. Qish faslida tuman markazidan uzilib qoladigan bu hudud odamlari qorlar erishi, bahor kelishini intiqlik bilan kutardi. Chunki og‘ir tog‘ yo‘llarida avtomobilda harakatlanishning sira imkoni bo‘lmasdi. Bugun esa asrlar bo‘yi odamlarni qiynab kelgan muammo barham topdi. Keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari natijasida qishloqqa yangi hayot nafasi kirib keldi.

“Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezonlari asosida dastlab Duoba qishlog‘iga olib boruvchi 35 kilometr tog‘ yo‘lini ta’mirlashga kirishilib, kengaytirildi hamda tosh-shag‘al yotqizildi. Sel, toshqinlar zarar yetkazgan ko‘chaning 7 ta nuqtasida beton yotqizildi. Ana shunday qurilish-bunyodkorlik ishlari tufayli tog‘ yo‘llarida yengil avtomashinalar harakatlana boshladi. Bunday qulaylik qadrini 30 chaqirim masofani 2-3 soat mashaqqat chekib bosib o‘tgan qishloq odamlari juda yaxshi biladi.

Qishloqda 1980-yilda qurilgan 17-umumta’lim maktabi ta’mirtalab bo‘lib qolgandi. 2,1 milliard so‘m evaziga 180 o‘rinli yangi o‘quv binosi qurib bitkazildi. Faqat shugina emas. 1,9 milliard so‘mga 50 qatnovga mo‘ljallangan shifokorlik punkti, 1 milliard so‘mga 80 o‘rinli maktab filiali barpo etildi. Mahallaning eski idorasi tubdan ta’mirlanib, mo‘jaz kutubxona va tikuvchilik o‘quv markazi ham barpo etildi. Ikkita transformator punkti qurilib, 1,6 kilometr elektr uzatish tarmog‘i tortildi. Qayroq va Gumatak qishloqlari aholisi ichimlik suv bilan ta’minlandi. Suyultirilgan gaz ballonlarini saqlash va aholiga yetkazib berish uchun servis markazi tashkil etildi. Vorkaut

maydonchasi, Pastki Duoba qishlog‘ida ham maktab uchun 80 o‘rinli qo‘shimcha bino barpo qilindi. Kam ta’minlangan va ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarning uy-joylari ta’mirlab berildi. Uylarning fasad qismi yangilandi. Qishloq hududi obodonlashtirilib, ko‘rkam qiyofa kasb etdi.

Duobalik Ramazon Abdullayev bundan 25-yil muqaddam o‘z mablag‘iga maktab qurgani butun mamlakat bo‘ylab ovoza bo‘lib, ko‘pchilikning e’tirofini qozongandi. Qishloq hayotidagi yangilanishlar haqida uning qalb kechinmalariga quloq tutdik.

— Kundalik hayotimizda ro‘y berayotgan o‘zgarish-yangilanishlar kishini bir muddat o‘ylab, tafakkur qilishga undaydi, — deydi O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi Ramazon Abdullayev. — Umrim shu qishloqda o‘tdi. Bu yerdan uzoqda yashab, ishlashni hech qachon ko‘zim qiymagan. Ammo kam bo‘lmadim. O‘qituvchilik kasbi tufayli obro‘-e’tibor, hurmat-ehtirom topdim. Biroq shiddatli taraqqiyot butun olamni qamrab olayotgan bo‘lsa ham hanuz bizni chetlab o‘tayotgandi. Yaqingacha hayot tarzimiz nochor, qishlog‘imizga oddiy elektr energiyasi ham yetib kelmagandi. Nihoyat yurtimizdagi islohotlar nafasi qishlog‘imizda ham bo‘y ko‘rsatdi. Kechalari zim-ziyo qishloq xonadonlariga nur, kishilar turmushiga fayz kirdi. Bu esa odamlar ko‘nglini tog‘dek ko‘tarmoqda.

Odamlarni rozi qilish, ular uchun qulay turmush sharoitini yaratishga qaratilgan “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezoni Sho‘rchi tumanidagi Xushchekka mahallasida ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Hududda 3932 aholi yashaydi. Bundan bir necha oy oldingi holat bilan bugungisi tamomila farq qiladi. Qurilish-bunyodkorlik ishlari tufayli 260 ta uy-joy ta’mirlandi. Mahallaning 7 kilometr ichki yo‘liga asfalt yotqizildi. 21 kilometrdan ortiq yo‘lga tosh-shag‘al to‘kilib, qariyb 4 kilometr yangi elektr tarmog‘i tortildi.

Hudud aholisini ko‘p yillardan buyon toza ichimlik suv muammosi qiynab kelardi. Bu masala ham yechimini topdi. 4 ta suv qudug‘i joriy ta’mirlanib, 8 kilometr ichimlik suv tarmog‘i tortildi. Xushchekka mahallasiga tutash Bobotog‘, Surxon sohili, Mustaqillik ko‘chalari asfaltlandi.

— Dastlab mahallada yashovchi aholi to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, muammolari o‘rganilgandi, — deydi Sho‘rchi tumani hokimi o‘rinbosari, xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Zulfiya Sherova. — “Ayollar daftari”ga 93 xotin-qiz ro‘yxatga olinib, 50 nafariga amaliy ko‘mak ko‘rsatildi. Ishsiz 16 ayolga subsidiya hisobidan tikuv mashinasi berildi. 21 fuqaroga “Har bir oila — tadbirkor” dasturi asosida 33 million so‘mdan jami 693 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Umuman olganda, mazkur tadbir doirasida mahalladagi 127 kishining bandligi ta’minlandi. Qishda loy, yozda chang ko‘chalar ta’mirlanib, mahalla hududidagi keng ko‘lamli ishlar maktabu tibbiyot muassasasi va aholi xonadonlarini ham qamrab oldi. Buning uchun 3 milliard 33 million so‘m sarflandi.

Xullas, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ruhi manzillardan manzillarga ko‘chib, “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezonlari asosida hududlar infratuzilmasi yaxshilanmoqda, aholi uchun qulay turmush sharoitlari yaratilmoqda.

Ilhom RAHMATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

DAVR TALABI

INDIVIDUAL TA’LIM *trayektoriyasi*

mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi

Mamlakatimiz ta’lim va ilm-fan sohasining hozirgi qiyofasini bundan 6-7 yil oldingisi bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Oradagi farq, o‘zgarish va imkoniyatlar nihoyatda katta. Garchi yurtimizda uzluksiz ta’lim tizimi avvaldan mavjud bo‘lsa-da, sohaga haqiqiy ma’nodagi e’tibor, yangicha yondashuvlar, moliyaviy ko‘mak oxirgi yillarda, ayniqsa, keskin oshdi. Bugun buyuk allomalarni yetishtirgan bu zaminda ta’lim-tarbiya, ilm-fanni rivojlantirish eng muhim maqsadlardan biriga aylandi, bu boradagi islohotlar aniq harakatlar, huquqiy asoslarda namoyon bo‘lmoqda.
Davlat dasturida ham ta’lim sifatini oshirish, sohani ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

Jabbor O‘SAROV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Talabaning shaxsiy salohiyatini yuzaga chiqaradi

Ilm-fan bir joyda qotib turmay, doimiy yangilanishlarni taqozo etadi. Masalan, bir vaqtlar ta’limda umumiylik, barcha o‘quvchilarni bir xil, o‘zgarmas dasturlar asosida o‘qitish shakli keng qo‘llanilgan bo‘lsa, bugunga kelib aksariyat davlatlarda individual ta’limga faol o‘tilgan. Bu uzluksiz ta’limning har bir bosqichida tatbiq etilyapti. Ya’ni ta’limning maktabgacha, maktab, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi bosqichlarida individuallikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu zamonaviy tilda ta’lim trayektoriyasi deb ham yuritiladi.

Ta’lim faoliyatini individuallashtirishning eng istiqbolli modellaridan biri bu — ta’lim trayektoriyasi hisoblanadi. Boshqa ta’lim bosqichlari singari oliy ta’limda ham bu usulning ahamiyati tobora ortmoqda. Gap shundaki, ta’lim trayektoriyasi har bir talabaning ta’limda shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning individual shakli bo‘lib, ta’lim jarayoni davomida yigit-qizlarning tashkiliy, ijodiy va boshqa shaxsiy qobiliyatlari aniqlanadi hamda shunga mos ravishda yo‘naltiriladi. Ya’ni har bir talaba bilan uning qiziqishlari, kasbiy istaklari asosida individual ishlanadi.

Trayektoriya so‘zining o‘zi haqida gap ketganda esa ko‘pchilik fizik tushuncha — jismlarning harakati davomida qoldirgan izini tasavvur qiladi. Biroq biz so‘z yuritayotgan trayektoriya jismlarning emas, aynan talabalarning kelajak kasbiy faoliyatini belgilaydigan ta’limdagi trayektoriyasi, ya’ni ularning sifatli ta’lim strategiyasini nazarda tutadi.

Individual ta’lim trayektoriyasi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etish maxsus metodologiya va texnologiyani talab qiladi. Zamonaviy didaktikada bu muammoni hal qilish uchun odatda ikkita qarama-qarshi usul taklif etiladi, ularning har biri individual yondashuv deb ataladi.

Birinchi usul — tabaqalashtirilgan ta’lim bo‘lib, unga ko‘ra, har bir talabaga individual yondashish, u o‘rganayotgan materialni murakkablik, diqqat-e’tibor darajasiga qarab farqlash taklif etiladi. Buning uchun talabalar odatda guruhlarga yoki darajalarga bo‘linadi.

Ikkinchi usul talaba o‘zi o‘rganadigan ta’lim sohasiga nisbatan o‘z ta’lim yo‘lini tanlashini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, har bir talabaga barcha o‘quv fanlarini o‘zlashtirish uchun o‘z ta’lim trayektoriyasini yaratish imkoniyati beriladi. Biroq bu usul mamlakatimiz ta’lim muassasalarida kamdan-kam uchraydi. Chunki u tashqaridan qo‘yilgan umumiy maqsadlar fonida talabalarning nafaqat individual harakati, balki har birining turli xil ta’lim modellarini o‘ziga xos tarzda va shaxsiy salohiyati bilan bog‘liq holda bir vaqtning o‘zida ishlab chiqish hamda amalga oshirishni talab qiladi.

Shu bois, yurtimizda birinchi usul — individual ta’lim keng tarqalib, uni amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlar ommalashib bor-yapti. Uning o‘ziga xos tomoni, talaba ta’lim jarayoni, grafik holati kabilarni individual tanlab, mavzuni o‘zlashtirishda bosqichma-bosqich to‘liq mustaqillikka o‘tib boradi. O‘qituvchi esa bu jarayonda talabaga maslahatchi sifatida qatnashib, uni yo‘naltirib turadi. Talabaga shaxsiy manfaatlari, o‘quv faoliyatining xususiyatlari, ta’lim olish usullari, o‘quv materialini o‘zlashtirish, o‘quv faoliyati turlarini hisobga olgan holda tanlash imkoniyati beriladi. Individual ta’lim trayektoriyasini tuzishda eng muhimi ham shu, avvalo, talabaning imkoniyati, qobiliyati, istiqbollari, natijaga erishish uchun bajarmoqchi bo‘lgan sa’y-harakatlarini baholashdan iborat.

Ammo individual ta’lim har bir talaba bilan yakka holda ishlashni nazarda tutmaydi. Bu usul har bir talabada mustaqil ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish bilan bog‘liq. Bunda talaba o‘z individual fazilati va qobiliyatiga asoslanib, o‘zining ta’lim trayektoriyasini quradi. Ta’lim jarayoni davomida “o‘zlashtirish xaritalari”ning turlari va imkoniyatini o‘rganadi, ularga doska bilan ishlashning turli texnikalari namoyish etiladi, dars va mashg‘ulotlarda ishtirokchilarning faolligini oshirish va jarayonga diqqatini jamlash uchun qo‘llanilishi lozim bo‘lgan akademik yo‘naltirilgan harakatli topshiriqlar to‘plami beriladi.

Umuman, ta’limning individual trayektoriyasi talabaning ta’limdagi shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqaradi. Bu bilan ularning bir necha huquq va imkoniyatlari ham ta’minlanadi. Masalan, har bir o‘quv fanida individual ma’no va maqsadlarni tanlash yoki aniqlash, asosiy tushuncha,toifalarni shaxsiy talqin qilish va tushunish, individual ta’lim dasturlarini tuzish, o‘z faoliyatini nazorat qilish, aks ettirish va o‘z-o‘zini baholash usullarini tanlash huquqi beriladi. O‘rganiladigan fanlar, ijodiy laboratoriyalar va asosiy o‘quv rejasiga muvofiq bo‘lgan darslarning boshqa turlarini individual tanlash huquqi ham shular jumlasidan.

Nazariya va amaliyotni birlashtiradi

Individual ta’lim trayektoriyasining yana bir afzalligi bor. Bu talabalarning nafaqat ta’lim jarayoni, balki darsdan tashqari izlanishi, ijodiy ishlari, bo‘sh vaqtini unumli tashkil etishida ham birgalikda ish olib borishdir. Buning uchun, avvalo, yigit-qizlarning pedagogik-psixologik portretini aniqlash va shu asosda ularning ta’lim trayektoriyasini belgilash kerak bo‘ladi.

Mazkur yo‘nalishda bir qancha pedagogik qarashlar, yondashuvlar mavjud. Chirchiq davlat pedagogika universiteti misolida oladigan bo‘lsak, oliy o‘quv yurtida pedagogik ta’lim innovatsion klasterining tashkil etilishi bu boradagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Ana shu ta’limdagi klaster asosida tashkil etilib, faoliyat yuritayotgan “Pedagogik alyans maydonchasi” esa talabalarning ilmiy va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirishiga keng sharoit yaratmoqda.

Pedagogik alyans klaster subyektlari bo‘lgan ta’lim oluvchi, ta’limni kelajak kasbiy faoliyatiga mos holda taqdim etuvchilar hamda o‘rganish maydonchalari (bog‘cha, maktab, OTM, mahalla, oila) o‘rtasidagi manfaatli hamkorlikni ta’minlovchi maydonchadir. Unda har bir talaba o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib, individual faoliyat bilan shug‘ullanish uchun aniq yo‘nalish, yo‘llanma oladi.

Alyansning maqsadi pedagogik ta’lim klasteri bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni sxematik tarzda aks ettirish orqali talabalarni bu jarayonga maqsadli yo‘naltirishdan iborat. Unda maqsad umumiy bo‘lsa-da, manfaatlar xususiylashadi. Bu yerda talabalar ta’lim jarayonida olgan nazariy bilimini amaliyotda qo‘llash hamda bu borada erishilgan natijalar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Kimdir alyansdagi ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etsa, kimdir amaliy ish faoliyatiga kirishadi, boshqasi o‘zining kelajakdagi faoliyat trayektoriyasini belgilab oladi. Buning uchun sharoit ham, takliflar ham mavjud. Talaba esa ulardan birini individual tarzda tanlaydi.

Bugungi kunda “Pedagogik alyans maydonchasi”da qator loyihalar amalga oshirilmoqda. “Ochiq osmon ostidagi maktab” ijtimoiy-mobil kompleks xizmat loyihasi, “SMART sensorika” mohir qo‘llar loyihasi, “Bir safda” ko‘ngillilar (volontyorlar) harakati kabilar shular jumlasidan. Bundan tashqari, maktab laboratoriya, inklyuziv ta’lim, bandlik, aralash ta’lim, ilmiy klaster kabi pedagogik ta’lim klasterining pedagogik-psixologik asoslarini ochib berishga qaratilgan qator loyihalar amaliyotga tatbiq etilib, ularda bevosita talabalar, maktab o‘quvchilari ham ishtirok etmoqda. Masalan, bandlik komponentida talabalar ham ta’lim olib, ham kasbiy faoliyatni amalga oshiradi. Mobillik komponentida esa ta’limning barcha bosqichida bolalarning moslashuvi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkaziladi. Olingan ilmiy tahlillar asosida amaliy mexanizmlar ishlab chiqiladi. Talabalar ularda qatnashib, har bir mexanizmni o‘rganadi, shaxsiy xulosalari asosida olgan ko‘nikmalarini esa amaliyotda yoki ish olib borayotgan tashkilotida qo‘llaydi.

Pedagogik alyansning yana bir muhim jihati shundaki, bu yerda olib borilgan har bir ishning QR-kodli taqdimoti mavjud. Shu kod orqali talabalar kerakli ma’lumotlarni yuklab olib, faoliyatida foydalanishi mumkin. Qolaversa, universitet talabalari bandlikka ko‘maklashishga qaratilgan turli taqdimot va loyihalarda ishtirok etib, o‘qish jarayonining o‘zidayoq munosib ish topish imkoniyatiga ega.

Individual ta’lim haqida gap borganida, imkoniyati cheklangan talabalarni e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Boisi, mamlakatimizda har bir inson munosib ta’lim olish huquqiga ega ekani Konstitutsiyamiz bilan belgilab qo‘yilgan. Qolaversa, oxirgi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qaratilgan e’tibor oshgani inson omili bosh mezonga aylangan mamlakatimizda katta islohotlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Imkoniyat cheklangani ta’lim olishga, ilm qilishga to‘siq bo‘lmasligi kerak. Bu borada zamonaviy yondashuvlar keng qo‘llanilayotgani boisi ham shunda. Universitet pedagogik alyansida ham imkoniyati cheklangan talabalar uchun “Chegarasiz imkoniyatlar” kasbiy akademik faoliyat amaliyoti, “Bugundan pedagog” metodik, “Bilish diagnostikasi” psixologik, “Kasb tanlash mobilligi” reformatik loyihalari mavjud. Ushbu loyihalarning maqsadi imkoniyati cheklangan farzandi bor oilalarga tezkor kompleks ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ko‘ngilli talabalarni metodik xizmatga jalb etish orqali uy ta’limini samarali tashkil etishga ko‘maklashishdan iborat. Bu nogironligi bo‘lgan talabalarga pedagogik faoliyat to‘siqlarini bartaraf etish modellarini o‘zlashtirishga ko‘maklashadi.

Hozirgi kunda individual ta’lim malakali kadrlar tayyorlash, mustaqil shaxslarni tarbiyalashning eng zamonaviy va samarali usullaridan biri sanaladi. Pedagogik ta’lim trayektoriyasi talabaga nafaqat individual o‘qish, balki darsdan tashqari izlanish, ijodiy ishlarni rivojlantirish, bo‘sh vaqtini unumli tashkil etishga sharoit yaratadi. Shu jihatdan individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish bugungi kunning muhim talabidir.

TASHABBUS

BIR YO‘LOVCHI — *bir kitob*

Avazbek INOMOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi,
IIV Akademiyasining magistratura tinglovchisi

Nima uchun kitob o‘qishimiz kerak? Bu savol deyarli barchaning xayolidan o‘tgan yoki ularga berilgan. Ammo har doim ham savolga aniq va lo‘nda javob berishga ko‘pchilik qiynalgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Menda ham Otabek Hasanovning “Liderlar” kitobini o‘qigunimcha shunday edi. Kitobdagi “Miyadagi kinoteatr” hikoyasi bu savolga nafaqat aniq va lo‘nda, tushunarli javob berdi, balki kitob o‘qish uchun zo‘r motivatsiya bo‘ldi.

Shundan boshlab kitobga munosabatim butkul o‘zgardi. Faoliyatimdagi ma’ruzalarim, turli suhbatlarda kitob o‘qishni targ‘ib qilishga odatlanib qoldim. Mark Tvenning “Savodli bo‘la turib, kitob o‘qimagan kishining savodsizdan farqi yo‘q”, degan gaplarini tez-tez yodga ola boshladim.

O‘zim ham har kuni kitob o‘qiydigan odat chiqardim, agar kitob o‘qimasam, xuddi biror nimani yo‘qotgan yoki unutib qoldirganday his uyg‘onadigan bo‘ldi. Ayniqsa, xizmat safarlari davomida yo‘lda kitob o‘qish mutolaa uchun judayam qulay fursat ekanini anglab yetdim.

2022-yil kuzida “Afrosiyob” tezyurar poyezdida Samarqanddan Toshkentga qarab yo‘lga chiqdim, vagonda o‘rindiqlari bir-biriga qaragan joyga o‘tirdim. Yo‘lovchilarning deyarli barchasi smartfonda qo‘shiq eshitgan, kino ko‘rgan va internet orqali o‘zi uchun kerak-nokerak ma’lumotlarni tomosha qilayotganini doimgiday kuzatdim.

So‘ng joyimga o‘tirib, sumkamdan “Liderlar” kitobini olib o‘qiy boshladim. Oradan 10-15 daqiqa o‘tgach, men bilan yonma-yon o‘tirgan uch hamrohim kitob o‘qiyotganimni ko‘ribmi yoki boshqa sababmi, aniq bilmayman (balki kitobi yo‘qligidan, o‘qimayotganidan uyalgandir), telefon titkilashni to‘xtatdi va uyquga ketdi.

Orada poyezd xodimlari bizga choy va shirinlik ulashdi, so‘ngra kimdir narxi 20-30 ming so‘mlik muzqaymoq, yana kimdir 25 ming so‘mlik ichimlik, turli yegulik va shirinliklarni maxsus aravachada sotish uchun targ‘ib qilib, maqtay boshladi. Yo‘lovchilarning aksariyati o‘ziga kerakli narsalarni sotib oldi.

> **“Men esa kitob o‘qishni davom ettirib, atrofimdagi yo‘lovchilar nima bilan band ekanini kuzatib ketaverdim. Afsuski, mendan boshqa birov kitob o‘qiganiga ko‘zim tushmadi.”**

Men esa kitob o‘qishni davom ettirib, atrofimdagi yo‘lovchilar nima bilan band ekanini kuzatib ketaverdim. Afsuski, mendan boshqa birov kitob o‘qiganiga ko‘zim tushmadi.

O‘sha vaqtda menda bir savol tug‘ildi. Nega ko‘pchilik yo‘lda faqat yeb-ichadi yoki telefonida aksar keraksiz ma’lumotlarni ko‘rish bilan vaqtini zoye ketkazadi?

Darrov savolimga javob ham topdim. Chunki temir yo‘llarimizda yo‘lovchilarga kitob o‘qish uchun tavsiyalar yoki sotib olish uchun kitob targ‘ibot (reklama) qilinmaydi. Faqatgina yegulik va ichimliklar taqdim etiladi, hatto ularning narxi odatdagidan qimmatroq...

Toshkentga yetib kelganimizdan so‘ng yonimda o‘tirib kelgan yo‘lovchi yigit qaysi asarni o‘qiganimni va o‘zi ham kitob o‘qishni yaxshi ko‘rishini, ammo hech vaqti bo‘lmasligini, kelgunicha menga havas qilganini aytib qoldi.

Shunda odamlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, kitob mutolaasiga qiziqishni kuchaytirishning eng qulay va yaxshi usullaridan biri yo‘lovchilar orasida kitob o‘qish targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish ekanini angladim. Bu g‘oyani o‘zim amalga oshirishga kirishdim. Nom ham o‘ylab topdim: **“Bir yo‘lovchi — bir kitob”.** Ushbu loyiha asosida temir yo‘llarda, aeroportlarda, metropolitenda targ‘ibot-tashviqot qilish uchun kerakli ishlarni boshlab yubordim.

Albatta, bu loyiha o‘z-o‘zidan bo‘lmasligi aniq edi. Bunga kuch, vaqt, resurslar kerak. Ishim ko‘p, bo‘sh vaqtim kam bo‘lishiga qaramay, kechalari loyiha ustida bosh qotirdim. Mutaxassislar bilan maslahatlashdim. Shukrki, hozir loyihani ishga tushirish uchun deyarli 60-70 foiz vazifani bajarib bo‘ldim.

O‘rganish jarayonida bildimki, yurtimizning 14 ta hududidagi temir yo‘l vokzallarida zamon talabiga javob beradigan bir-orta kitob do‘koni yo‘q ekan. 7 tasida ko‘zbo‘yamachilik uchun yoki shunchaki kitob burchaklari tashkil qilingan, xolos.

Albatta, vokzalda shoshib ketayotgan odam bir qarashda buni payqamaydi. Men esa sinchkovlik bilan vokzallarda kitob do‘konlari bor-yo‘qligini o‘rganib, tahlil qildim. Niyatim va orzum — barcha temir yo‘l vokzallarida bir xil tipdagi zamonaviy kitob do‘konlari ochib, yurtimiz ahli va mehmonlari uchun xizmat ko‘rsatishiga hissamni qo‘shmoqchiman.

Xullas, yaqin kunlarda shaxsan o‘zim poyezd vagonlarida kitobxonlikni targ‘ib qilish, yurtimiz aholisiga, qolaversa, chet ellik mehmonlarimizga loyihamiz logotipi tushirilgan chiroyli kiyimlarda (futbolka va kepka) eng sara asarlarni taqdim qilib, kitob sotmoqchiman. Albatta, dastlab bu tajriba tariqasida bo‘ladi.

O‘ylaymanki, loyiha o‘z natijasini beradi, chet ellarda bo‘lgani kabi bizning ham metro bekatlarimizda, poyezdlarimizda va samolyotlarimizda kitobxonlik madaniyati yuksak darajaga ko‘tariladi.

Loyihamning bosh g‘oyasi — “Eng yaxshi sovg‘a va do‘st kitobdir!” Asosiy maqsadim Prezidentimizning “Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”, degan g‘oyasini targ‘ib etib, yangi O‘zbekistonda kitobxonlikni yuqori darajaga ko‘tarishga hissa qo‘shishdir.

Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir..

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MILLAT FIDOYILARI

SHONLI TURKNING O'TYURAK AVLODISIZ, JADIDLAR!

Bahrom IRZAYEV,
Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

Moziyga nazar tashlasak, Turkiston o'lkasida tub aholi tomonidan bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi shiddatli kurash olib borilgan. Mazkur milliy ozodlik kurashini tarixchilar ikki davrga (1918-1924 va 1925-1935-yillar) bo'lib o'rganadi. Bu harakat jug'rofiy doirasi va tarixiy sharoitlariga ko'ra, Turkiston ASSR, Buxoro Respublikasi va Xorazm Respublikasi hududlariga bo'linadi. Sho'ro ma'murlari sovet rejimiga qarshi ozodlik kurashining ahamiyatini pasaytirish maqsadida ushbu harakatni xalq o'rtasida jinoyatchi unsurlar — o'g'ri va bezorilarni anglatuvchi "bosmachi" degan so'z bilan ifodalashga kirishadi.



1919-yilning o'rtalaridan boshlab avval vaqtli matbuotda, so'ngra rasmiy hujjatlarda "bosmachi" va "bosmachilik" iboralari keng ishlatilgan. "Qizil tayoqlar", "Ko'k ko'ylak" truppalari, mahalliy va markaziy matbuotda muntazam maqolalar, plakatlar, hatto kinofilmlar orqali milliy ozodlik harakatining mohiyatini soxtalashtirish tashviqotiga zo'r berildi. Vaholanki, Turkiston xalqlari erk va hurriyat kurashining g'oyaviy asoslari Turkiston muxtoriyati e'lon qilingan vaqtdan taniqli jadid taraqqiyparvarlari tomonidan yaratilgan edi. Jumladan, G'ulom Zafariyning "G'oyamiz" nomli she'ri Muxtoriyatning madhiyasidek yangradi.

Buyuk Cho'lpon o'sha tahlikali onlarda dushmanga nisbatan: *"Ket, mahv bo'lursan! Yaqinlashma, kul bo'lursan! Onajonimiz Turkistonning bag'riga atalgan qilichlarga biz, Turkiston farzandlarining ko'kraklari qalqon"*, deya xalqning otashqalb farzandlarini Vatan ozodligi uchun muqaddas jangga, kerak bo'lsa, shahidlik sharobini totishga targ'ib etadi.

Darhaqiqat, o'sha onlar Ho'qandi latif butun mintaqadan kelgan ozodlik va istiqlol orzusidagi Turkiston farzandlari bilan to'lgan, shaharning barcha ko'chalari bayram shukuhi ostida edi. Buyuk mutafakkir Fitrat Muxtoriyat e'lon qilingan 27-noyabr tunini "Milliy laylat ul-qadrimiz" deb alqadi. Toshkentda chop etilgan "Ishchilar dunyosi" jurnalida Kostroma shahridagi turk subaylarining turkistonlik qardoshlarini Muxtoriyat bayrami bilan qutlab bitgan otashin maktubi bosildi. Unda Fitratning *"Ey turk va tatar o'g'li! Ey shavkatli islom ansori! Bu kun dining yo'lida oqdi qoning, bergan qurbonliklaring mukofotini shu ochdig'ing majlisingda beradigan qarordan kutib qol! Sen moziydagi o'lim hollaringni, ortdagi porloq kunlaringni xotirlab xayrli ishlar boshla!.. Otalaringga qilingan haqoratlari, senga qilingan zulmlari, diningga berilgan zarbalarni sen unutmading. Din dushmanlaringdan o'chingni, millat dushmanlaridan intiqomingni oladigan qurultoyingni, din qardoshing, qon qardoshing bo'lgan biz, turklar tabrik etadilar! Ko'rilgan ishda muvaffaqiyat, otilgan har qadamda muzaffariyat duosini qilib, ochajaging majlis va e'lon etganing Muxtoriyatni qutlab qolamiz. Istiqboling porloq bo'lsin, istiqloling yaqin bo'lsin!"* degan da'vati barcha yoshlarning qo'liga qurol tutishiga ulkan turtki bo'ldi.

Sho'rolarga qarshi Turkiston muxtoriyati hukumati qo'shiniga dastlab Kichik Ergash bosh bo'ldi. Kichik Ergash 1918-yil fevralda Qo'qon shahrida bo'lgan urush natijasida mag'lubiyatga uchrab, Bachqir qishlog'iga chekindi. 26-fevralda Bachqirga qizil gvardiyachilar va arman dashnoqlari hujum qildi. 27-fevralda bo'lgan janglarda Kichik Ergash halok bo'lgach, Katta Ergash Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Tez orada harakat butun Farg'ona vodiysiga tarqaldi.

Jome ichida ham xalq to'la. Kamol qozi xalqqa qarab: "Bolsheviklar dinimizni xor qiladi. Muxtoriyatimizni bolsheviklarga ezdirmaymiz...", dedi qat'iy. Muxtoriyat hukumatiga ko'proq qozoqlar, ruslar, tatarlar, o'zbeklardan a'zolar saylandi. Ministrlar sho'rosi boshida Mustafo Cho'qayev, uning sarkotibi Chaykovskiy turar edi. Har mahalladan 5 kishidan yig'ib, milliy qo'shinning sonini bir mingdan oshirdi. Lekin qurol yo'q. Qishloqqa bosmachilarga qarshi chiqamiz degan bahona bilan krepostdan 120 dona miltiq qarz olib, askarlariga tarqatdi. Ularga navbatma-navbat o'sha qurol bilan harbiy ta'lim berdi.

Ultimatum!

Agar ertaga soat 3 gacha Muxtoriyat hukumati olgan miltiqlarni qaytarib bermasa va Muxtoriyat hukumati tinchib turolmasa, muvaqqat inqilobiy qo'mita harbiy harakat boshlashga majbur bo'ladi. Krepost ichida yotgan sho'ro raisi o'rtoq Babushkin hammani to'plab olib, muxtoriyatchilarga hujum qildi.

Muxtoriyatchilar natijasiz chiqib ketdi. Ertasi butun krepost harbiy holatga o'tdi. To'plar, pulemyotlar Eski shaharga, Sho'roi islom binosiga qaratib qo'yildi. Urush bir kun, ikki kun, uch-to'rt kun cho'zilib ketdi. Shahar ustida o'q yomg'irday yog'ilib tursa-da, ko'chalarda odam ko'pligidan yurib bo'lmas edi. "Bir chekkadan qirg'in boshlandi. Eski shaharda armani qirg'ini ketdi. Krepostda o'q bita boshladi. Krepost ichi ovrupoliklar va ularning oilalari bilan to'lgan...". Bu kabi xabarlar hammaning rangini o'chirdi. Toshkentdan madad kutar edilar...

O'lgan odamning og'ziga suv tomizganday Toshkentdan Perfilov otryadining kelib yetishi hammaga jon kirgizdi. Bozorning hamma joyiga nasos bilan kerosin sepdirib o't qo'ydi. Hamma joyni alanga bosdi. Bolsheviklar shu kechasi Eski shaharni ishg'ol qildi.

1918-yilning bahorida Turkiston muxtoriyati hukumati sovetlar tomonidan shafqatsiz qonga botirilgach, Sho'roi islomiyaning Farg'ona vodiysidagi yetakchilaridan Mirodilboy qishloqlarga o'z odamlarini yo'llab, hammani yalpi qo'zg'olonga chaqiradi. Beshbola qishlog'i yig'ilishida ham Muhammad Said Sag'irboyvachcha qurultoydan so'ng Xangizda butun boyligini sarflab, 50 nafar yigitni ot, imkoniyati qadar qurol bilan ta'minlaydi. Ularga To'ychi qo'rboshini rahbarlikka tayinlab, o'zi ham 1920-yilgacha 200 odami bilan Muhammad Aminbekning xizmatida bo'lgan. Tez orada Madaminbek xalq qahramoniga aylandi. 1919-yil 9-fevralda Jalolobodda turgan K.Monstrovning krestyanlar armiyasi Madaminbek bilan sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun o'zaro bitim tuzadi. 1919-yil 22-oktyabrda qizil armiyaga qarshi bir necha muvaffaqiyatli janglardan so'ng Muhammad Aminbek boshchiligida Muvaqqat Farg'ona hukumati tuzildi. Albatta, uning atrofida nafaqat yirik ulamolar, balki butun vodiyning erkka talpingan xalqi, yoshlari, jadid maktablari o'quvchilari jamlangan edi.

Turkistonda istiqlol olovi chiqqan ilk zamonlarda — 1918-yilning bahorida Munavvarqori Abdurashidxonov maslahati bilan mufti Sadriddinxon Turkiyaga yo'l oldi va Turkiyadagi qardoshlarga Turkistonda kechayotgan xunrezliklar haqida xabar yetkazdi. Ular Sho'roi islomiyaning yana bir vakili, Turkiston muxtoriyatining g'aznachisi Said Nosir Mirjalilov bilan birga yoz davomida Istanbulda Nuri posho, Azizbey orqali Turkiyaning xavfsizlik ministri Tal'at posho bilan muzokaralar olib boradi. Biroq bu paytda jahon urushida mag'lub tomon bo'lgan Turkiyaning o'zida ham ahvol og'ir edi. Shu tufayli muzokaralar samarali kechmadi. Turkiya hukumati vakillari bevosita yordam bera olmasa ham ulardan hay'at tuzib, Jenevaga Millatlar ligasiga yuborishi va u yerda Turkistonni sovetlardan ajratib olish masalasini ko'tarishiga yordam berishi mumkinligini aytadi. Mufti Sadriddinxon va Said Nosir Mirjalilov Toshkentga xabar yuborib, mufti

> **Muxtoriyatchilar natijasiz chiqib ketdi. Ertasi butun krepost harbiy holatga o'tdi. To'plar, pulemyotlar Eski shaharga, Sho'roi islom binosiga qaratib qo'yildi. Urush bir kun, ikki kun, uch-to'rt kun cho'zilib ketdi. Shahar ustida o'q yomg'irday yog'ilib tursa-da, ko'chalarda odam ko'pligidan yurib bo'lmas edi. "Bir chekkadan qirg'in boshlandi. Eski shaharda armani qirg'ini ketdi. Krepostda o'q bita boshladi. Krepost ichi ovrupoliklar va ularning oilalari bilan to'lgan...". Bu kabi xabarlar hammaning rangini o'chirdi. Toshkentdan madad kutar edilar...**

Mahmudxo'ja Behbudiyni ma'lum vakolatlar bilan Istanbulga yuborishlarini so'raydi. Afsuski, Behbudiy hazratlari muqaddas yo'lda ketayotgan vaqtida shahid bo'ldi... Toshkentga kelgan mufti Sadriddinxon Yunusxon madrasasida mudarrislik, Shirinquduq mahallasida imomlik qildi. Biroq istiqlolni qo'ldan berishga aslo rozi bo'lmadi. O'zi uchun qanchalik xavfli bo'lishiga qaramay, Munavvarqori bilan birga "Milliy ittihod" tashkilotini rivojlantirishga kirishadi. 1920-yilning kuzida Munavvarqorining Buxoroga yuborilishi "Milliy ittihod" ishiga ham zarba berdi. 1921-yilning 6-mart kuni amalda "Milliy ittihod"ning raisi bo'lgan mufti Sadriddinxon Abdulla Ziyomuhammedovning uyida shogirdlari bilan Sharqiy Turkistondagi Yaponiya va Buyuk Britaniya konsullari nomiga xat tayyorlaydi. Xat "Milliy ittihod"ning muhri bilan tasdiqlanib, Orif Karimiy, Yusufbek Qurbonov tomonidan G'uljaga yo'llanadi. Maktubda, jumladan, shunday so'zlar bor edi: *"1917 sana oktyabr voqeasindan so'ngra sovet hukumatining boshinda hukmron bo'lgan Leninning va'dasi har bir millat uchun milliy ozodlik va hurriyat e'loniga binoan Turkistonning eski poytaxti bo'lgan Ho'qand shahrida o'lka muxtoriyatini e'lon etib, turkistonli turklar ma'qul bir hukumat tashkil qilgan holda millatchi bolsheviklarning zolimona hujum va berahimona harakatlari ila shaharlar buzilib, qonlar to'kilib, xotun va bolalar kesilib, xonalar va mollar talontaroj etilib, hukumat arboblari otilib, osilib, hukumat tarqatildi va shul ona qadar otuv-kesuvlar davom etmakdadir..."Osiyo osiyoliklarningdur" degan shiorni lozim tutgan Siz muhtaram Yaponiya hukumatidan iltimos qilinurkim. qardosh vatandosh osiyolik Turkiston aholisining bu qadar zulm ostida umr kechirmoqig'a rozilik ko'rsatmay, saloh va pul, o'zga darkor bo'ladirgan rejalar ila yordam qo'lin uzatmog'ingizni, Vatan va irqdoshlik nomindan o'tinamiz..."*.

Xuddi shu mazmundagi ikkinchi xatni Qosh-g'ardagi Buyuk Britaniya hukumatining vakiliga yo'llab, *"Siz muhtaram amniyat va huquqi bashariyat ustozi Buyuk Britaniya hukumatidan iltimos qilinurkim, Turkiston aholisining bu qadar zulm ostida yashab va Turkiston madaniyati, sanoi nafisalari botil va xarob o'lmakig'a rozilik yuzin ko'rsatmay, siloh va o'zga zarur ashyolar ila yordam qo'lin etmog'ingizni huquqi insoniyat nomindan o'tinamiz..."*, deydi.

Afsuski, xat 1921-yil 16-mart kuni Avliyootada chekistlar tomonidan tutib olindi. Mufti Sadriddinxon Toshkentdan chiqib, Rahmonquli qo'rboshiga qo'shiladi. 1921-yilning boshida Buxoroga borgan toshkentlik taniqli jadid muallimlar Usmonxo'ja To'xtaxo'jayev va Tangriqul hoji Maqsudiy mufti Sadriddinxonning so'rovi bilan Toshkentga qaytadi. Ular Isroiljon rahbarligidagi guruh bilan Piskent tomon yo'l oladi. Panzar qishlog'ida Rahmonqulining ukasi Tursunboy qo'rboshi Ashoba qishlog'i yaqiniga kelganda Rahmonqulining o'zi kutib oladi. Muallimlar Sadriddinxonning rejasiga ko'ra, istiqlolchilarga dars va ma'naviy dalda berishi kerak edi. Ayni paytda mufti Sadriddinxon istiqlolchilar armiyasining oliy qo'mondoni Shermuhammadbek nomidan bu qurultoyga Farg'onaga muxtoriyat berish, harbiy boshqaruvni ruslarning aralashuvisiz mahalliy aholiga topshirish, iqtisodiy va diniy erkinliklarga daxl qilmaslik kabi 13 punktdan iborat ultimatum tayyorlaydi. Biroq Shermuhammadbek bolsheviklar bilan muzokara qilib, Muhammad Aminbekning xatosini takrorlashdan hayiqdi. Mufti Sadriddinxon Rahmonqulibek va Islom pahlavon bilan uch kun davomida Shermuhammadbekning huzurida bo'ldi. Bek Afg'onistondan qurol yetib kelguncha faqat mudofaa janglari bilan cheklanishga qaror qiladi. Muallimlar ortga qaytarildi, qizil armiyaning soni kundan-kunga ortib bordi. Va'da qilingan qurollar kelmadi. Sho'rolar fitnasi tufayli qo'rboshilarning ichida ham o'zaro kurashlar avj oldi, millat qoni daryo bo'lib oqdi. Biroq kurash ko'lami yanada kengayib, butun Turkiston zaminiga tarqala boshladi.

Zaki Validiyning Turkistonga kelishi va 1921-yil 2-avgustda "Turkiston milliy birligi" tashkilotining qaror topishi bilan janglar butun mintaqada avj olib ketdi. Jumladan, Samarqand yaqinida Ochilbek, Bahrombek, Qoraqulbek, Hoji Abdulqodir, Jizzaxdan Niyozi bek va Turobbek, Hamroqul kabi qo'rboshilar va ularning yonida Samarqand viloyatining eng bilimdon ziyolilaridan Qori Komil, Qori Muhammad va boshqa zotlar bo'lgan. Ularning har biri Zaki Validiy To'g'on xotiralarida millat, vatan, deb yongan, yetuk, mard, yuksak axloqli insonlar sifatida ta'riflangan. Bu kurashchilarning milliy tarkibida o'zbeklar bilan birga qirg'izlar, qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, qisman uyg'urlar, shuningdek, ruslar va Validiy tomonidan yuborilgan ayrim boshqird va tatar harbiylari, Turkiya va Afg'onistondan kelgan oz miqdordagi zobitlar ham bor edi. Turkistonning qalam tutgan zotlari borki, qahramonlar sha'niga she'rlar bitdi, yor-yoru o'lanlarda ularning nomlari madh etildi.

Bolsheviklar 1920-yil 1-fevralda qizil askarlarga tayanib, noqonuniy tarzda Xorazm Xalq Jumhuriyatini tashkil etdi. "Yosh xivaliklar"ning Bobooxun Salimov boshchiligidagi hay'atni Lenin, Chicherin ming xil hiyla-nayranglar bilan ikki oy davomida Moskva va Peterburgda ovora qilib, noteng shartnoma imzolatishga kirishdi. Biroq dunyo diplomatiyasini avragan Chicherin o'nga yaqin tilni biluvchi, o'tkir aql va bilim sohibiga so'zini o'tkaza olmadi. Bobooxun Salimov o'zining yuridik bilimlari bilan Leninday asli yurist, dunyo miqyosidagi siyosatchini ham lol qoldirdi. Muzokaralarda bolshevik dohiylariga hech qanday imkon qoldirmay, Xorazmning bir qarich yerini ham Sovet Rossiyasiga bermadi. Kurash yana goh ochiq, goh yashirin ko'rinishda davom etdi. 1921-yil 22-noyabr kuni harbiy nozir Mirkomil Mirsharopov sho'ro vakili Bankka: "Siz boshqa bir davlatning ichida ekanligingizni unutmang, agar biz istasak, nafaqat harbiy qo'mita rahbari Voloshinni, harbiy guruh komandiri Sokolovni, hatto RSFSR doimiy vakili Bikni ham 24 soat muhlat berib, haydab chiqishimiz mumkin, o'rningizni biling", deydi.

Xorazm hukumati 1921-yil 23-noyabrda yig'ilish o'tkazib, Bikni zudlik bilan 24 soatda XXSR hududini tark etishi uchun qaror chiqaradi. 1921-yil 25-noyabr kuni Xorazm radiosidan Xorazm hukumatining 17 nafar rahbari tomonidan imzolangan qarori o'qib eshittirildi. Natijada sho'ro markazi Bikni qaytarish haqida rasman qaror qildi. Biroq Bik 1921-yil 27-noyabr kuni go'yo XXSR MIK va XKS favqulodda majlisini chaqirib, aslida, hokimiyat egasi MIK raisi Otamaxsum, XKS raisi M.Ibniyaminov, IIV H.Ermatov, Harbiy nozir M.Mirsharopov va yana bir qancha Xorazm hukumati tarafdorlari bo'lgan harbiylarni "xalq dushmani" deb qamoqqa olishga qaror qiladi. Hatto vintovka va pulemyotlar bilan qurollangan qizil armiya harbiylari nozir uyiga 20-10 qadam yaqinlashgach, ayovsiz o'qqa tutadi.

Tasodif tufayli omon qolgan Mirkomil Mirsharopov ko'chada, xalqning ko'zi oldida sharmandali holda olib ketiladi. Bik hammaga eshittirib, "Senlarga mustaqil davlatligingni shunday ko'rsatib qo'yaman", deb qichqirardi. Shu kunning o'zida Xorazm hukumatining boshqa a'zolari ham qamoqqa olindi. 1922-yil 5-martda o'tkazilgan harbiy tribunal barcha gumonlanuvchilarni otib tashlashga hukm chiqardi. Biroq Buxoro, Turkiston hukumatlari vakillari hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning aralashuvi bilan Tribunal qarori bekor qilindi. Tergovlar jarayonida O'rta Osiyo harbiy brigadalariga murojaat etib, Xorazmdan qizil askarlarni chiqarib yuborish talabi, Moskvaga yo'llangan radiotelegramma va boshqa harakatlar ortida M.Mirsharopov va uning yigitlari turgani ma'lum bo'ladi. 1922-yil 28-iyuldagi ayblov bayonnomasida M.Mirsharopovga Xorazmda sovetlarga qarshi qo'zg'olonga tayyorgarlik, Bikni haydash uchun Moskvaga radiotelegramma yuborish, Junayidxon bilan hamkorlik qilgan kabi ayblovlar qo'yildi. Ammo M.Mirsharopov o'ziga qo'yilgan ayblarning birortasini tan olmadi. O'zining barcha xatti-harakati qonuniy bo'lganini aytib, aksincha, ulardan boshqa bir mamlakatning harbiy nozirini qamoqqa olishdek jinoyatni sodir etgani uchun javob berishini so'raydi.

1922-yil 7-avgust kuni "Mahbus Mirsharopov nomidan" deb yozilgan arizada: "... sakkiz oy avval Bik meni noqonuniy qamoqqa oldi. Hamon buning asl sababini bilmayapman. Tergovchilar menga nima ayb qo'ymoqchi ekanini ham bilmayman. Men ma'nan charchadim. Mening masalamni hal qilinglar. Yo meni otib tashlanglar, aybim bo'lmasa, ozod qilinglar", deb yakunlaydi. 1922-yil 13-avgust kuni tashrif buyurgan komissiya M.Mirsharopovni ozod etadi. Keyingi davrlarda ham Xorazm rahbarlari Junayidxon bilan muntazam yozishmalar olib bordi va tarixda Junayidxon o'n yillar davomida Xorazm davlatchiligi uchun jon berib, jon olgan milliy qahramon sifatida qoldi.

1920-yil 2-sentabrda Frunze rahbarligidagi qizil armiya tengsiz kurashda Buxoro amirligini ag'daradi. "Yosh buxoroliklar" hukumati BXR mustaqilligini saqlab qolish maqsadida goh istiqlolchilar ko'rinishida yashil bayroq ostida, goh qizil bayroq ostida qizil armiyaning zulmiga chek qo'yishga harakat qiladi. Biroq sho'rolar o'z mavqeini mustahkamlash yo'lida hech qanday tubanlikdan qaytmaydi. Buxoro CHK rahbari Muinjon Aminov bilan 23 vintovka olib Xargushga, Jabborbekka yuboradi. Buxoroga kelgan Anvar posho ham vaziyatni anglagan holda Buxoro istiqlolchilik kurashiga rahbarlikka kirishdi.

1924-yil oxirida Turkiston mintaqasida milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi natijasida qurolli kurashning birinchi davri yakunlandi. Ikkinchi davrida, asosan, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Buxoro va Xorazm hududida janglar davom etdi. Tirik qolgan kurashchilarning aksariyati xorijiy davlatlarga muhojirlikka ketishga majbur bo'ldi. Darhaqiqat, Turkistonda milliy ozodlik kurashida yuz minglab tish-tirnog'i bilan qurollangan qizil askarlar, qonxo'r arman dashnoqlari tomonidan mislsiz qirg'inlar sodir etildi. Muttasil vahshatlar ostida qurol kamligiga qaramay, Muhammad Aminbek, Shermuhammadbek, Anvar posho, Ibrohimbek Laqay, Junayidxon, Omon polvon, Bahrombek singari jahon tarixida munosib nom qoldirgan buyuk qahramonlar yetishib chiqdi va xalqimiz xotirasida abadiy qoldi.

Sho'rolar Turkiston g'oyasiga zarba berish maqsadida uni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston qilib parchalab tashladi. Biroq milliy istiqlolchilik harakatining ahamiyati shundaki, sho'rolar orzu qilgan jahon inqilobi sodir bo'lmadi. Vahshiy kuch, manfur g'oya Sharq tomon bir qadam ham tashlay olmadi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1246.
43301 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 23:25 Topshirildi — 23:50

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05